

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

FILOLOGIYA FAKULTETI

O'ZBEK TILI YO'NALISHI

4-kurs, 402 - guruh bitiruvchisi

Mirzaakbarova Dilnoza Abduqahhor qizining

bakalavr darajasini olish uchun

**“Sodiq Sayhun she’riyatida badiiy obraz va uning
ko’rinishlari”**

mavzusida yozgan

**BITIRUV - MALAKAVIY
ISHI**

Ilmiy rahbar:

f.f.n., dotsent O. Karimov

Namangan – 2015-yil

M u n d a r i j a

K i r i s h4-7

I bob. Namangan adabiy muhiti va unda Sodiq Sayhunning o'рни

1.1. Yurtboshimiz I. A. Karimovning adabiyot haqidagi fikrlari.....8-13

1.2. Namangan adabiy muhiti haqida.13-17

II bob. Sodiq Sayhun she'riyatining g'oyaviy-badiiy tavsifi

2.1. Sodiq Sayhun – shoir, nosir va publitsist. Ijodkor hayoti va faoliyatiga qisqacha chizgilar.....18-25

2.2. Shoir she'riyatining mavzu jihatdan rang-barangligi: lirik she'rlari, ishqiy g'azallari, doston, she'riy topishmoq va fardlari.....26-38

III bob. Sodiq Sayhun nasri va badiiy xususiyatlari

3.1. Sodiq Sayhun nasri va dostonlari.....39-52

3.2. Sodiq Sayhun she'riyatida badiiy tasvir vositalarining qo'llanishi.....53-58

Xulosa.....59-60

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....61

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O'zbek xalqi tarixida yangi davr ochgan O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi milliy mafkura, ilm-fan, madaniyat va ma'naviyat sohalarini yanada rivojlantirish vazifalarini qo'ydi. Bunday muhim vazifalar o'zbek xalqi madaniyati, fani, adabiyoti va san'ati tarixini tubdan o'rganish, undan bugungi kun uchun amaliy xulosalar chiqara bilish asosidagina to'la bajarilishi mumkin. Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, "Biz milliy ma'naviyatni har tomonlama yuksaltirish masalasini o'z oldimizga asosiy vazifa qilib qo'yar ekanmiz, bugungi kunda ma'naviyatimizni shakllantiradigan va unga ta'sir o'tkazadigan barcha omil va me'zonlarni chuqur tahlil qilib, ularning bu borada qanday o'rin tutishini yaxshi anglab olishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi"¹.

Adabiyot ma'naviyatning ajralmas qismi ekanligini hisobga olsak, yuqoridagi masalalar, o'z navbatida milliy adabiyotimiz namunalarini o'rganish, tadqiq etish dolzarb masaladir.

XX asr o'zbek adabiyotini o'rganish bu vazifani to'la ado etishga xizmat qiladi. Ayniqsa, mashhur yozuvchilarimiz faoliyati bilan tanishish bu ishimizni naqadar ahamiyatli ekanini ko'rsatadi.

Kishilar ma'naviy dunyosini boyitishning xilma-xil shakllari bo'lib, ularning biri fan, adabiyot, san'at va madaniyat taraqqiyotiga o'zining munosib hissasini qo'shgan so'z san'atkorlari hayoti va faoliyatini o'rganish, tadqiq etishdan iboratdir.

O'zbekiston mustaqil bo'lgach, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-ma'naviy, madaniy- adabiy sohalarida keskin o'zgarishlar yuz berdi. Adabiyotga e'tibor kuchaydi. Istiqlol yillarida hayotimizning barcha sohaları qatori milliy adabiyotimiz ham tom ma'noda yangilanish va yuksalish jarayonlarini boshdan kechirmoqda. Aytish mumkinki, adabiyotga e'tibor keskin o'zgarmoqda. Bu borada Prezidentimizning olib borayotgan siyosati ayniqsa ibratlidir. Jumladan, **"Xalqimiz adabiyotni muqaddas va ulug' bir dargoh deb biladi. Ana shunday bahoning o'zi el-**

¹ **Ислом Каримов.** Юксак маънавият – енгилмас куч. Т.: "Маънавият", 2008, 33-бет.

yurtimiz hayotida bu soha namoyandalariga, ularning haqqoniy so'zi, chuqur ma'noli asarlariga ishonch hurmat-e'tibor va ehtirom azaldan yuksak darajaga ko'tarilganini yaqqol ko'rsatib turibdi"², - deb haq gapni aytgan edi dono Yurtboshimiz.

Adabiyot millat ruhiyati ma'naviyatining ko'zgusi hisoblanadi. Unda butun millat orzu-umidlari, ilg'or fikr - g'oyalari mujassamlashgandir. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng hozirgi ijodkorlarimiz zimmasida milliy istiqlol g'oyasini xalqimiz ongiga, qalbiga singdirish kabi muhim vazifa turibdi.

Bugungi adabiy jarayonda, xususan, Namangan adabiy muhitida o'z o'rniga ega bo'lgan talantli shoir va publitsist Sodiq Sayhun (Sodiq Tojiboyev) she'riyatini tahlil etish va uning badiiy- goyaviy jihatlarini o'rganish hamda Namangan adabiy muhiti haqida muayyan tasavvurlarni hosil qilishi tabiiy bir hol. Mavzuning dolzarbligi shu kabi masalalarda ko'rinadi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Sodiq Sayhun ijodi, uning hayoti va jo'shqin faoliyati bilan bog'liq ma'lumotlarni ko'pincha kichik tadqiqotlar – ilmiy maqolalar ko'rinishida gazeta, jurnallarda ko'ramiz. Shu paytga qadar shoirning badiiy merosi va ijodiy faoliyati haqida 30 dan ortiq she'riy to'plamlar hamda alohida kitobchalar nashr etilgan. Shoir to'plamlari poytaxtimizda ham, viloyatimizda ham ko'plab tirajda bosilib chiqqan. Mashhur olimlar va professorlar shoir kitobiga so'zboshi yozishgan. Mashhur adabiyotshunos olim Sultonmurod Olim ("O'n sakkiz yosh eding" kitobiga), professor Abduxalil Mavrulov ("Abdulla polvon" tarixiy qissasiga), shoir va publitsist Ziyoviddin Mansurovlarning ijodkor haqidagi fikrlari shoirning badiiy olamini o'rganishda bizga amaliy yordam beradi. Biz shoir asarlarini o'rganishda, tahlil qilishda ana shu olimlarning qimmatli fikr-mulohazalaridan o'rni bilan foydalandik.

Bitiruv-malakaviy ishning o'rganish manbalari Ushbu bitiruv-malakaviy ishni yozish jarayonida Namangan adabiy muhiti (A. Xalilbekov), shoirning e'lon qilingan 20 dan ortiq kitoblari adabiy manba sifatida olindi.

² **Ислом Каримов.** Адабиётга эътибор – маънавиятга келажакка эътибор. -Т.: "Ўзбекистон", 2009, 7-бет.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi Bugungi kunda ijodkor Sodiq Sayhun nomiga munosabat boshqacha. Asarlari ham haqiqiy bahosini oldi, o'rganish, tadqiq qilish davom etmoqda. Shu maqsadda biz ham ajoyib shoir va publitsist Sodiq Sayhun ning adabiy merosini to'plash, ilmiy asosda yangicha tadqiq qilish, chuqurroq o'rganmoqchi bo'ldik va ko'zlagan maqsadga erishdik.

Tadqiqotning maqsadi. Mazkur tadqiqot o'z oldiga Sodiq Sayhun she'riyatida badiiyat masalalari, inson va insoniylik haqidagi, insonlik mohiyati haqidagi fikrlarni aniqlashni hamda ushbu g'oyalarning mohiyatini to'la yoritib bergan shaklning – badiiy obraz va uning xususiyatlarini talqin etishni maqsad qilib qo'ygan. Tadqiqotda belgilangan ilmiy maqsadni amalga oshirish uchun asarning yangicha tahlillariga ham e'tibor qaratildi. Sodiq Sayhun she'riyati mavzu jihatdan rang-barang talqinlar ham talaygina. Shuning uchun ham mazkur tadqiqotda shoir she'riyati, unda badiiy obraz muammosi, mumtoz an'analarga sodiqlik va yangi shakllardagi novatorlikni tahlil etish ham asosiy vazifalardan biri etib belgilandi.

Ushbu tadqiqotda Sodiq Sayhun she'riyati va publitsistikasining badiiy xususiyatlari, unda qo'llangan timsollarning badiiy qimmati; zamonaviy va mumtoz talqini baholi qudrat bugungi kun nuqtayi nazaridan o'rganildi, tadqiq etildi, umumlashma xulosalar chiqarildi

Tadqiqotning vazifalari. Yuqoridagi ilmiy maqsadlarni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- shoir va publitsist Sodik Sayhunning hayot va ijod yo'lini o'rganish, Namangan adabiy muhitida hamda hozirgi o'zbek adabiyotida tutgan o'rnini aniqlash;
- ijodkorning yozuvchilik faoliyatini, to'plamlarini o'rganish va tahlil qilish;
- yozuvchi ijodini mavzu jihatdan turlarga ajratib olishga erishish;
- san'atkorning badiiy so'z tanlashdagi, mavzuni yoritishdagi ifoda usulini ochib berish, mahoratini aniqlash;
- Sodik Sayhun she'riyatining badiiy ta'sirchanligini ta'minlagan omillarni aniqlash va badiiy-tasviriy vositalarni tahlil etish;

- Shoir she'riyatida badiiy obraz va uning ko'rinishlari bilan bog'liq jihatlarini talqin etish;
- Sodiq Sayhun she'riyatidagi sharq mumtoz adabiyoti an'analariga munosabatini va shu an'analar bag'ridagi ijodkorligini ko'rsatib berish;
- shoir she'rlarining mavzu jihatdan rang-barangligini aniqlash, ijodiga munosabat, she'rlarida ona yurt madhi ifodasini aks ettirish;
- Sodiq Sayhunning lirika, proza va publitsistika sohasidagi izlanishlarini atroflicha tahlil qilish, o'zligini aniqlash

Ishning nazariy va amaliy ahamiyati. Sodiq Sayhun ijodi hozirgi adabiyotimizda u qadar ko'p o'rganilmagan. Bu haqdagi ayrim mulohazalar adabiyotshunos olimlardan Sultonmurod Olim, A. Mavrulov, O. Karimovlarning ilmiy va tanqidiy maqolalarida uchraydi. Ishni yoritishda shoir to'plamlari, tanqidchilardan Ozod Sharafiddinov, Matyoqub Qo'shjonov, Umarali Normatov, Ibrohim G'afurov, Abdug'afur Rasulovlarning tadqiqotlaridan foydalandik. She'r va dostonlarini tahlil qildik. Bu ishdan Hozirgi adabiy jarayon va Namangan adabiy muhiti darslarining ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarida yangi manba sifatida ham foydalanish mumkin.

BMIning tuzilishi va hajmi . BMI kirish, uch bob(har bir bob ikki fasldan iborat) va xulosadan iborat. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati ham ko'rsatildi, jami 60 sahifani tashkil etadi. Ish oxirida mavzu bo'yicha slaydlar ilova qilingan.

I bob. Namangan adabiy muhiti va unda Sodiq Sayhunning o'рни

1.1. Yurtboshimiz I. A. Karimovning adabiyot haqidagi fikrlari

Badiiy adabiyot insonning ma'naviy olamini boyitadi, ruhiyatini tarbiyalaydi, qalbimiz va ongimizda odamiylik hislarini parvarishlaydi. Badiiy adabiyotning asosiy quroli badiiy so'zdir. O'zi ko'zga ham ko'rinmaydigan so'z yordamida nafaqat atrofdagi narsa-hodisalarni, balki boshdagi o'ylar, ko'ngildagi sezimlarga qadar ifodalash mumkin. Insonning o'y-xayollari, istag-u armonlari badiiy adabiyotda to'la aks etadi. Muhtaram Prezidentimiz Islom Karimovning *“Ma'naviyatni tushunish, anglash uchun avvalo, insonni tushunish, anglash kerak”*,³ degan so'zlari alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki adabiyotning asosiy tasvir obyekti – inson.

O'zbek millatining qon-qoniga adabiyotga oshuftalik hissi singib ketgan. Ona zaminimizda yaratilgan ko'plab asarlar jahon adabiyoti durdonalari safidan mustahkam o'rin egallab ulgurgan. O'zbek adabiyotiga qiziqish chet el adabiyotshunoslari toimonidan ko'plab ilmiy tadqiqotlarning tug'ilishiga sabab bo'lgan.

Yurtboshimiz mustaqilligimizning dastlabki kunlaridan boshlab adabiyot ahliga har tomonlama yordam ko'rsatish, ijod erkinligini ta'minlash, badiiy adabiyotlar nashrini ko'paytirish borasida O'zbekiston hech qaysi davlatdan ortda qolmasligi masalasiga alohida e'tibor qaratmoqda. Eng muhimi, milliy adabiyotimizning ertangi kuni, uning kelajakdagi rivoji ma'naviyat sohasidagi ustuvor vazifa ekanini alohida uqtirmoqda.

*“Agar biz O'zbekistonimizni dunyoga tarannum etmoqchi, uning qadimiy tarixi va yorug' kelajagini ulug'lamoqchi, uni avlodlar xotirasida boqiy saqlamoqchi bo'lsak, avvalambor, buyuk yozuvchilarni, buyuk shoirlarni, buyuk ijodkorlarni tarbiyalashimiz kerak. Zero, ulug' adib Cho'lpon aytganidek, adabiyot yashasa – millat yashaydi”*⁴.

³ **Islom Karimov.** Юксак маънавият – енгилмас куч. Т: “Маънавият”, 2008, 29-бет.

⁴ **Islom Karimov.** Юксак маънавият – енгилмас куч. Т: “Маънавият”, 2008, 140-бет.

Adabiyotni ma'naviyat xazinasi deb ta'riflashadi. Darhaqiqat, uning bag'rida hozirga qadar insoniyat ardoqlab kelayotgan eng tansiq hislar, latif tuyg'ular – insonparvarlik, adolat, shafqat, o'zaro hamjihatlik, do'stlik mehr va muruvvat, sevgi va muhabbat, go'zallikka tashnalik singari o'lmas insoniy tuyg'ular jamuljamdir. Adabiyotga oshnoi tutingan odam qalbiga bu hislar ko'chib o'tishi, uni hazrati insonga aylantirishi, hayotiga nur olinib kirib, turmushini turfa mazmun bilan boyitishi aniq. Yurtboshimiz shu jihatlarni hisobga olib *“Eng buyuk jasorat – ma'naviy jasoratdir,”* –deya ta'kidlagandilar.

Hozirgi kunda adabiyot va ijod ahli zimmasidagi mas'uliyat yana-da ortsa ortdiki, kamaygani yo'q. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov bu muhim masalani quyidagicha ifoda etadi: *“Bugungi murakkab va tahlikali zamonda yozuvchining bashariyatni ertangi kunini o'ylab, odamlarni ezgulik, insof-diyonat, mehr-oqibat va bag'rikenglikka da'vat etishga qaratilgan haroratli so'zi har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ya'ni, yozuvchi: “Ey odamzod, ko'zingni och, sen nima uchun yashayapsan, inson degan yuksak nomga munosib bo'lish uchun nima qilyapsan?” degan savollarni kitobxon oldida, jamiyat oldida qat'iy qilib qo'ya olsagina, o'ylaymanki, o'zining insoniy va ijodiy burchini bajargan bo'ladi.”*⁵

Ijodkor zamonaning o'tkinchi epkinlariga berilmay, hayotda yuz berayotgan voqealarning tub zamiriga nazar tashlashi, mana shu chuqurlikda yotgan asl sabab-mohiyatni ko'rishi va uni mukammal obrazlar hamda vositalar orqali badiiy hodisaga aylantira bilishi lozim. Adabiyotshunoslik fanida *“abadiy muammolar”* degan tushuncha mavjud. Bu shunday muammolarki, zamonlar o'tishi, bir-ikki davr kishilarining sa'y-harakatlari bilkan ular yechilib, yo'q bo'lib ketmaydi. To odamzod bor ekan, bu muammolar unga doimiy va ajralmas hamroh bo'lib qolaveradi. Odamzodni qiziqtiraveradi, o'ylantiraveradi, qiynayveradi. Muhabbat va nafrat, adolat va adolatsizlik, imonlilik va nafsga qullik, haqiqat va yolg'on, mardlik va qo'rqqoqlik, sadoqat va sotqinlik, vatanparvarlik tuyg'ularini o'z ichiga qamragan, abadiy muammolarni yoritgan asarlargina umrboqiylik kasb etadi.

⁵ “O'zbekiston adabiyoti va san'ati” gazetasi. 2009 йил, 3 июл сони.

Badiiy asarlar insonni boyitib, tetiklashtirib, ma'naviy qashshoqlashishdan asraydi. Odamning moddiy boyliklari ko'payishi uni o'z-o'zidan ma'naviy boy qilib qo'ymaydi. Inson och-yupun qolmaslik to'g'risda qanchalik o'ylasa, o'zini ma'naviy yuksaltirish to'g'risida undan-da ko'proq jon kuydirishi kerak bo'ladi. Ma'naviy yuksalishning eng samarali yo'llaridan biri esa kitobga oshno tutinish, jumladan, adabiy asarlar mutolaasiga ixlos qo'yishdir. Yurtboshimiz I. A.Karimovning "Adabiyotga e'tibor ma'naviyatga, kelajakka e'tibor" deb nomlangan asari millatimizning ma'naviy qashshoqlashishdan asrash qayg'usida, kuyunchaklikning ifodasi sifatida yaratildi.

O'z mustaqilligimizni qo'lga kiritgan ona Vatanimizning ertangi kun taqdiri qanday bo'lishi, dunyo xalqlari orasida orttiradigan obro'si ko'p jihatdan yosh avlodga bog'liq. Chunki mamalakatni mamlakat, millatni millat qiladigan uning bag'rida o'stirayotgan farzandlaridir. Agar bu farzandlar faqat qorin g'amini o'ylaydigan, yurtdoshlari taqdiriga befarq, o'z manfaati yo'lida insof, adolat, iymon tuyg'ularini toptab o'tadigan kimsalar bo'lib yetishsa, bunday yurtga chetdan bostirib keladigan dushmanning ham keragi bo'lmaydi. Ma'naviyatsiz, ma'rifatsiz kimsalarning qilmishlari yurtning nafaqat bugunini, balki kelajagini ham xavf ostida qoldirishi turgan gap. Bunday farzandlar qo'lga o'tadigan yurtning boyliklari talon-taroj bo'ladi, iqtisodiy tanazzul bedavo dardga aylanadi. Uning madaniyati va san'ati milliy qiyofasizlikka duchor bo'ladi. Jamiyat hayotida adolatsizlik, insofsizlik va madaniyatsizlik oddiy holga aylanib, kishilarning kelajakka bo'lgan ishonchi mutlaqo so'nadi.

Farzandlari ma'rifatli, ma'naviyatli, o'zligini tanitgan xalqning komil farzandlari esa, ona Vatan, zamin qadrini har narsadan yuksakka qo'yadi. Shuning uchun ham xalqimiz boshidan o'tgan yaxshi-yomon kunlarni doimiy yodda tutish uchun adabiyotga murojaat qilamiz. Adabiyot tarixi – millat va mamlakat tarixining jonli ifodasidir. Adabiyotni anglagan millat o'zligini anglaydi.

Har bir millatning qiyofasini belgilashda uning adabiyoti ham hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Chunki milliy adabiyot milliy ruhni aks ettiradi. Milliy ruhni to'laqonli aks ettirish va uni saqlab qolishda boshqa biror-bir vosita adabiyot

o'rnini bosa olmaydi. Shuning uchun adabiyoti bo'lmagan millat unutilishga mahkum. Turkiy tilda yaratilgan asarlarda turkiy xalqlarning otashin ruhi aks etib turadi.

O'zbek adabiyoti deganda beixtiyor ko'z o'ngimizda Alisher Navoiy siymosi gavdalanadi. Chunki Alisher Navoiy asarlarida yuqorida ta'riflaganimizdek, abadiy muammolar talqin etilgan. Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek: *“Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyondasi, millatimiz g'ururi, shan'u sharafigini dunyoga tarannum qilgan o'lmas so'z san'atkoridir. Ta'bir joiz bo'lsa, olamda turkiy va forsiy tilda so'zlovchi biron-bir inson yo'qki, u Navoiyni bilmasa, Navoiyni sevmasa, Navoiyga sadoqat va e'tiqod bilan qaramasa”*⁶.

Chunki Navoiyni bilish, Navoiyni sevish, millatni sevish, Navoiyga sadoqat eng ezgu qadriyatlarga sadoqat demakdir.

Alisher Navoiy ijodi avvalo, ulug' so'z san'atkorining mahsuli, ayni paytda millatimiz tafakkur ko'lamini hamda ma'naviy qudratining timsolidir. O'zbek xalqining buyuk adibga hurmati shu qadar cheksizki, bu hurmatning ifodasi sifatida o'zbekona ibora bilan Navoiy nisbasi oldidan Hazrat so'zini keltiramiz. Prezidentimizning “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch” asarida xalqimizdan ywetishib chiqqan, uning dunyoga ma'rifatli millat sifatida tanilishiga ulkan hissa qo'shgan buyuk ijodkorlar xizmatiga yuksak baho berar ekan, jumladan, mutafakir bobomiz Alisher Navoiyni quyidagicha ta'riflaydi: *“Agar bu ulug' zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir”*⁷.

Prezidentimiz tomonidan Hazrat Navoiyga berilgan bu baho barcha yozuvchilarning qalbiga buyuk faxr tuyg'usini solmog'i kerak. Boisi, san'at va adabiyotni bunday qo'llab-quvvatlash faqat mustaqil O'zbekistonimiz ravnaqi yo'lidagi muhim omildir. Yana bir jihat Navoiyga berilgan baho bu adabiyotimizga

⁶ **Ислом Каримов.** Юксак маънавият – енгилмас куч. Т: “Маънавият”, 2008, 47-бет.

⁷ **Ислом Каримов.** Юксак маънавият – енгилмас куч. Т: “Маънавият”, 2008, 47-бет.

berilgan bahodir. Shuni unutmaslik kerakki, har bir ijodkor qo'liga qalam olar ekan, u Navoiy ijodidan ilhom oladi, desak yanglishmaymiz. Sababi, o'zbek adabiyotining asosiy etaloni ham Alisher Navoiy ijodi bo'la oladi.

Xuddi shu ijod sarchashmasidan ilhom olib badiiy ijod qilayotganlar orasida Namangan adabiy muhiti vakillarining ham o'ziga yarasha o'rni bor. ... Uning ijodida Navoiyga, umuman, mumtoz adabiyotga hamohanglik o'ta kuchli., She'rlarini o'qisangiz, beixtiyor klassik asarlargagina xos bo'lgan mungli, ajoyib biro hang yangrayotgandek bo'ladi, go'yo.

Shoir, nosir va publitsist Sodiq Sayhunning O'zbekistonda (asosan Toshkentda) va Namangan nashriyotlarida 30 dan ortiq she'riy to'plamlari, dostonlari, publitsistik maqola va ocherklar kitobini qo'lga olib, muallifga g'oyibona hamroh bo'lar ekanmiz, sehrli bir olamga tashrif buyurganday bo'lamiz, qadimiy Axsikentda, jahongashta shoh va shoir Zahiriddin Muhammad BOBUR bilan, oilasi bilan dildan suhbatlar qurgan bo'lamiz.

Sodiq Sayhun she'rlarida goho mashrabona olov-otash, goho Yassaviy yoki Maxtumlili nazmidagi kabi yoniq didaktika, pand-nasihat ham uchrab turadiki, bu ham uning mumtoz adabiyotimiz namoyondalari izidan borayotganiga shohidlik berganday taassurot qoldiradi. Shu bilan birga yuragidagi og'riq dardlarni, qachonlardir oshkora aytmagan fikrlarini, uning o'rniga soxtalik egallaganidan bir oz hijolatga tushganini yashirmaydi ham:

*Yillar aytolmadik, o'ksik ota yurt,
Vatan bitta deya, emasdik-ku gung.
Shod qo'shiq kuyladik, na baxtimiz but,
Yayrab o'yin tushdik, ko'nglimizda mung.*

*Dinni ta'qib etdik, qoldik beiymon,
Ahmad Yassaviyni quvdik dillardan.
Temur bobom ruhin o'ksitdik har on,
“Lenin bobomlar”ni qo'ymay tillardan.*

Qomusiy olimlardan biri bo'lgan Ibn Sino "Sharq ko'proq pand-nasihat yo'li bilan, G'arb hayotni real ko'rsatish bilan tarbiyalaydi", - deb ta'kidlagan edi. Darhaqiqat shunday. Bu fikr o'zbek adabiyotida yaratilgan ko'plab durdona asarlar uchun xosdir. Chinakam iste'dod o'z kitobxonlarini o'zi yaratadi, ya'ni yangi kitob yangi kitobxonlarni yaratdi. Shularni hisobga olib aytganda, yozuvchining hayotda bajaradigan funksiyasi juda yuqori. Yozuvchilikni kasbga aylantirmaslik kerak. U eng sara, sof tuyg'ularning jamuljami sifatida bo'y ko'rsatishi, millatni, xalqni estetik dunyoqarashini, badiiy tafakkurini oshirishga xizmat qilishi shart.

Mustaqillik yaratgan yangicha hayot va sharoitda yosh avlodlar o'z o'rnini topishi va yangicha zamon talablariga javob beradigan tafakkur va salohiyatga ega bo'lishlari uchun adabiyotni o'rganish, asarlarida ifodalangan g'oyalarni tushunib, hayotga tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

1.2. Namangan adabiy muhiti haqida

O'zbek adabiyoti va madaniyati taraqqiyotida, ilm-fanning o'sishida Namangan diyori va namanganlik ijodkorlarning ham munosib hissasi bor. Namangan o'lkasi azal-azaldan mashhur ijodkorlarga boy bo'lib kelgan, o'z iste'dodlarini yuqori darajada namoyon qila olgan ko'plab adib-u shoirlarni, olim-u ulamolarni yetishtirib bergan. Ko'plari poytaxtimizda yashab ijod etdilar, mashhurlik darajasiga erishdilar. (Husniddin Sharipov, Jonrid Abdullaxonov, Tohir Qahhor) Bulardan ayrimlarning ijodi batafsil o'rganildi, keng tadqiq etildi, shu asosda maqolalar yozildi. Bunda atoqli adabiyotshunoslarimizdan G'ulom Karimov, Aziz Qayumov, Abdurashid Abdug'afurov, Malik Murodov, Hamidjon Homidov, Alixon Xalilbekov, Odiljon Nosirov, Mo'minjon Sulaymonovlarning, shuningdek, bir qator jonkuyar va fidoyi kishilarning xizmati katta bo'ldi.

Shunday bo'lsa ham Namangan adabiy muhitining anchagina qismi kam o'rganilgan, uning tarixi hali varaqlanmagan sahifalari ham bor. O'zbek xalqi badiiy madaniyatining ajdodlarimiz ma'naviy merosining ajralmas qismi bo'lgan

Namangan adabiy hayotini umumlashtirib yuzaga chiqarish muhim ilmiy-nazariy va amaliy-tarbiyaviy ahamiyatga egadir.⁸

Namangan diyori Asiruddin Axsikatiy, Go'ziy Munsahiy, Mashrab, Majzub, Muxlis, Maxzun, Ma'dan, Fazliy, Nodir, Shavqiy, Nodim, Hayrat, Xilvatiy, Ibrat, So'fizoda, Shuhiy, Nisoriy, Saloh Qoriyev, Toshtilla Rasulova, Nuriddin Boboxo'jayev, Odiljon Nosirov, Chustiy, Habib Sa'dulla yana bir necha yuzlab ulug' shoir va adiblarni kamolga yetkazgan ona zamindir. Nomlari zikr qilinmagan yana ko'plab ijodkorlarimiz hozirgi adabiyotimiz rivojiga sezilarli hissalarini qo'shib ulgurishgan. Ularning adabiy merosi o'zbek ma'naviyatining bir bo'lagi va bu bo'lak Namangan ahlining faxri hamdir. Adabiyot tarix oynasi ham demakdir. Ushbu adiblar ijodida Namnaganning shonli o'tmishini, boy madaniyatini, ruhiyati, dunyoqarashidagi evrilishlar yaqqol namoyon bo'ladi. Shunday ekan, Namangan adabiy muhitini o'rganish har bir namanganlik uchun farzdir.

Namangan adabiy muhitida mumtoz adabiyot an'annalarini saqlab qolishga urinish ham kuchli. Nodim ijodida Navoiyning "Layli va Majnun" dostonidan ta'sirlanib yozilgan ishq qissasi uchraydi. Bunda albatta, ilhom manbai yuqorida ta'kidlaganimizdek, Hazrat Mir Alisher Navoiyning asari turtki bo'lgan. Sujet bir, mazmun ham. Lekin Nodim bu dostonga ayrim o'ziga xosliklarni ham kiritadi. Ya'ni Navoiy yashagan davr boshqa, Nodim yashagan davr, dostonida bu kabi masalalarni ham noziklik bilajn aks ettirilganini sezish qiyin emas. Bu doston masnaviy yo'lida emas, balki murabba' yo'lida bitilgani ham o'ziga xos yangilik edi.

Namangan shoirlari orasida insoniylikni, pokizalikni targ'ib etuvchi, saxiylikka, muruvvatlilikka, hamiyatga, hojatbarorlikka chorlovchi she'rlar yozgan adiblar ham talaygina. Masalan Muxlis ihjodidagi bir she'rni tahlilga tortaylik:

*Agar hojat talabsen, el aro hojat ravo bo'lg'il,
Qanoat aylagil, boring darig;' tutma gadolardin,
Saxiy bo'lsang, birodar, ikki olam obro'yingdir,
Hazar qil, tegmnasin ofat xasisi xudnamolardin...*

⁸ Халилбеков А. Наманган адабий муҳити. – Тошкент: Ruhafzo, 1998, 3-бет

*Qo'lingdanb qo'ymagil also, tarozuyu hamiyatni,
Panoh bersun hamiyatsiz, hayosiz-behayolardin.
Hayoliklarni savti dildadir, har kim emas mahram,
Jahon zulmatga to'ldi malla to'nlik beibolardin.*⁹

Shoir bu misralari bilan insoniylik targ'ibini yana shuningdek, hayo deya atalmish yuksak tuyg'uni ulug'lamoqda. Mumtoz adabiyotga oid bilimlarimizdan ma'lumki, o'zbek adabiyotidagi ilk yozma doston, didaktik-pandnoma ruhidagi "Amin ul-muluk", "Ziynat ul-umaro", "Oyin ul-mamlakat", "Shohnomai turkiy" deya ulug'langan, Yusuf Xos Hojib tomonidan XI asarda yaratilgan, hozirgacha faqat uch nusxasi saqlanib qolgan "Qutadg'u bilig" asarida ham "Vafo – insoniylikning boshi" deya talqin etilgan. Muxlis fikricha ham shunday. Hayo, ibo, vafo insoniylikning muhim me'zoni bo'lishi kerak.

*Na malakman, na farishta, men ham odam naslidin,
Men tavalludi o'shal farzandi Namagoniman, -*

Deya tug'ilgan makonini ta'kidlab o'tgan Mashrab ijodini olib ko'raylik. Bizningcha, Mashrab ijodi mavjlanib turgan bir ummon. Bu ummon hozirga qadar bundan keyin ham o'z mavjida yangi-yangi ma'no durlarini jilolantirib hayqirishi ajab emas.

Mashrab she'rlari hamma vaqt shavq bilan o'qilib, yodlanib, kuylanib kelingan. Chunki ular g'oyat samimiy, tili shirin, dilga yaqin, hammabop, nihoyhatda soda, o'ynoqi, ravon, xalq qo'shiqlariga hamohang:

*Har kishining dardi bo'lsa, yig'lasin yor oldida,
Qolmasun armon yurakda, etsun izhor oldida.
Men nola qilay shom-u sahar dod eshigingda,
Jonimni beray, sho'xi parizod eshigingda.
Tushti savdoi muhabbat boshima,
Or etar mardum kelurga qoshima.
Ey mening nozik niholim, qaydasan?
Bu ko'ngul bo'stonida g'uncha dahonim qaydasan?*

⁹. Халилбеков А. Наманган адабий муҳити. – Тошкент: Ruhafzo, 1998, 41-бет

Darhaqiqat, yuqoridagi misralarni o'qiganimizdayoq, o'ziga xos sodda, sanmimiy ohangni tezda ilg'ab olamiz. Bu hozirgacha namanganlik adiblar tomonidan saqlab kelinayotgan, davom ettirilayotgan mashrabona ruh, mashrabona ohangdir.

Mashrabning "Ko'rgali keldim" g'azali Namangan ahli orasida allaqachonlardan beri to'y qo'shig'i sifatida yangraydi. Shoirning:

Agar oshiqligim aytsam, kuyib jon-u jahon o'rtar,

Bu ishq sirrin bayon etsam, taqi ul xonumon o'rtar, -

deb boshlanuvchi mashhur g'azalning har bir baytida ilohiy muhabbatning oshiq ko'nglidagi jilvasi, oshiqning iztiroblari go'zal tasvir etilgan.

Ajab Majnun erurman, dasht ila sahrog'a sig'mamdur,

Dilim daryoyi purdur, mavj urub dunyog'a sig'mamdur,

Shariat ham tariqat ham, haqiqat mendadur mavjud,

Chu sultoni azaldurman, ki arsh a'lg'a sig'mamdur.

Mashrabona uslub namanganlik bir necha adiblar tomonidan bugun ham davom ettirilmoqda.

XX asrning 60-yillaridan o'zbek adabiyotida badiiy obraz muammosi, uning shakliy tuzilshi o'ziga xos tarzda bo'y ko'rsata boshladi. Xalqimizning sevimli shoirlariga aylangan Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Rauf Parfi, Xurshid Davron, Shavkat Rahmon, Muhammad Yusuf, Sirojiddin Sayyid, Iqbol Mirzo kabi ijodkorlar o'zbek adabiyoti, xususan o'zbek she'riyati rivojiga salmoqli hissa qo'shdilar. Mustaqillik yillariga kelib bu nomlar yanada ko'paydi. Vodiyning ko'z-u qoshiga aylangan Namanganda ham bu yillarda Habib Sa'dulla, Sanobar Hasanova, Oyimcha Bekmirzayeva, To'xtaxon Rahimova, Ergash Yondosh, G'ulomjon Akbarov, Ermamat Nurmatov, Abdulla Jalil, Abduqahhor G'afforiy, Ziyoviddin Mansur, Yoqubjon Ahmadjonov, Abdulla Jabbor, Dilbar Haydarova, Dilorom Ergasheva, Sodiq Sayhun, Boqiy Mirzo, Ruqiya G'oziyeva, Jamoliddin Muslim kabi shoirlarimiz poytaxtdan uzoq bo'lishlariga qaramay, butun iste'dodlarini ko'z-ko'z qildilar. Nomlari O'zbekistonga yoyildi. Ijodlaridan namunalar poytaxtda ko'p nusxalarda chop etiladigan "Sharq yulduzi", "Saodat",

“Yoshlik”, “Guliston”, “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” kabi gazeta va jurnallarda ketma-ket berib borildi. Mashhur, nufuzli nashriyotlar shoirlarimiz asarlarini kitob holida chop eta borishdi. Namangan ijodkorlariga uzoq yillar bosh bo‘lgan marhum shoir Habib SA’DULLA yuksak mukofot O‘zbekiston xalq shoiri unvoniga musharraf bo‘ldi. Istaymizki, bu nomlar yana ko‘paysin.

Bugungi kunda ustoz an‘analariga sodiq holda ijod qilib kelayotgan, o‘z ovozigacha, o‘z yo‘liga hamda ko‘p sonli muxlislariga ega bo‘lib ulgurgan shoir, qalami qayralgan publitsist hamda elga tanilgan jurnalist Sodiq SAYHUNdir. Chorak asrdan ortiq vaqt mobaynida barakali ijod qilish barobarida ko‘plab kitoblarini muxlislariga tortiq qilib ulgurgan Sodiq Sayhun ijodi, chindan ham, adabiyotimizda arziqli hodisadir. Shoir ijodi va adabiy kuzatishlari keng o‘rganishga arziydigan hodisadir, deb ayta olamiz. Biz o‘z ishimizda kamtar va samimiy inson, iqtidorli ijodkor, o‘ziga va so‘ziga codiq shoir haqida fikrlarimizni atroflicha keng bayon etishga jazm qildik. Zero, Sodiq Sayhun ijodi serqirra va semahsuldir. Taniqli shoir va publitsist Ziyoviddin Mansur ta’kidlaganidek, *“so‘zi ham o‘ziday jo‘shqin, ta’sirchan”*.

II bob. Sodiq Sayhun she'riyatining g'oyaviy-badiiy tavsifi

II.1. Sodiq Sayhun – shoir, nosir va publitsist. Ijodkor hayoti va faoliyatiga qisqacha chizgilar

Sodiq Sayhun nomi bugungi kunda adabiyot ixlosmandlariga ancha yaqin bo'lib qolgan. Adabiyotga, she'riyatga bo'lgan havas ijodkor nomini uzoq yillar davomida nafaqat viloyatimizda, qolaversa, butun O'zbekistonimizda ham taniqli qildi, she'r ixlosmandlari qalbidan joy olib ulgurdi, deb ayta olishga haqlimiz. Sodiq Sayhun ham shoir, ham nosir, ham publitsist bo'lishi bilan birga yetuk adabiyotshunos – xalq ma'naviyatini yuksaltirishga munosib hissa qo'shadigan qator maqola va risolalar muallifi hamdir. Talantli shoir Sodiq Sayhunning bir qator to'plamlari respublikamizning nufuzli nashriyotlarida ko'p tirajda bosilib chiqqan, taniqli adabiyotshunos olimlar kitoblarga so'zboshi yozishgan. Bugungi kunda shoir muxlislarini hamma joyda uchratishimiz mumkin. Qisqa qilib aytadigan bo'lsak, Sodiq Sayhun bugungi adabiy jarayonga faol aralashib kelayotgan talantli shoir, nosir va qalami o'tkir publitsistdir.

Sodiq Sayhun til-adabiyot o'qituvchisi Solijon Tojiboev (marhum ustoz uzoq yillar maktab direktori bo'lgan) oilasida 1954-yil 1-yanvarda To'raqo'rg'on tumani Bordimko'l qishlog'ida tavallud topdi. Bordimko'l qishlog'i Sirdaryoning bo'yiga, mashhur vatandoshimiz, shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning yoshlik yillari o'tgan Axsikent atrofiga joylashgan. Sodiqjonning bolalik yillari ham mashhur shoirning qadami tekkan qishloqda kechdi. Ota-onalarining va yaqinlarining yaxshi niyatlarimi, Allohning inoyati sababmi – Sodiq Sayhun taniqli shoir bo'lib yetishdi – jonajon qishlog'i, so'lim tabiati uni shoirlik, ijodkorlik darajasiga ko'tardi, mashhur qildi.

Sodiq Sayhun Bordimko'l qishlog'idagi 25-maktabni “a'lo” baholar bilan tugatib, 1971-yilda Namangan Davlat pedagogika institutining (hozirgi NamDU) o'zbek filologiyasi fakultetiga o'qishga kirdi va 1975-yilda mazkur fakultetni “imtiyozli” diplomga tamomladi. Talabalik yillarida Sodiqjon she'riyatga, badiiy ijodga bo'lgan iqtidorini namoyish qila oldi. Tez orada ustozlari nazariga tushdi.

Taniqli olim va ijodkor Nuriddin Boboxo'jaev, Odiljon Nosirov kabi ustozlari tomonidan o'tkaziladigan "Yosh ijodkorlar" to'garagining faol a'zosiga aylandi, ilk she'riy mashqlari va maqolalari bilan matbuotda ko'rina boshladi. Ustozlar o'gitiga amal qilgan Sodiqjon nomi sekin-asta ko'pchilik nazariga tusha bordi, butun diqqatini ijodga, jurnalistika sohasiga qaratdi. Garchi u adabiyotshunos bo'lsa-da, jurnalist sifatida mashhur bo'la boshladi hamda 1985-1988-yillarda Toshkent Davlat universitetining (hozirgi O'zbekiston Milliy universiteti) jurnalistika fakultetida tahsil oldi. Tahsil davomida ijodkorlik mas'uliyati hissi bilan yashadi, tinmay o'qidi, izlandi. Tez orada ham jurnalist, ham filolog bo'lib yetishdi.

Sodiq Sayhunning ilk ijodiy mashqi 1972-yilda To'raqo'rg'on tumani gazetasi "Mash'al"da e'lon qilingan "Onam" g'azali bo'ldi. Shundan so'ng asarlari viloyat gazetasi "Namangan haqiqati"da, Respublikaning qator gazeta-jurnallarida bosildi. Ilk she'riy kitobi 1992-yili "O'n sakkiz yosh eding" nomi ostida nashr etilgan. To'plamdan ijodkorning o'ttizdan ortiq she'r, turkum lavhalar va hikoyalari o'rin olgan. Shundan so'ng Sodiq Sayhun she'r va g'azallardan iborat "Sevgi sehri", "Yor kelar kun", "Sadoqat saodati", "Sohibkorlar", "Chorak asr", "To'raqo'rg'onnomi", "Yaxshilikka yaralgan umr", "Boburning bolaligi", "Samodil", "O'qi, tingla, o'ylab top", "Qo'shiqqa aylangan umr", "Nurpok", "Temur bola qissasi", "Farddasta" va yana o'nlab yangi nomlardagi kitoblarni she'r ixlosmandlari hukmiga tortiq qildi.

Bundan tashqari, ijodkor o'n to'rt hikoyali tarixiy qissadan iborat "Abdulla polvon", "Avlodlar yodnomasi", "Bugun kechaning ertasi", "Samodil", "Deputatlar", "Shifokor va hayot", "Ko'hna go'sha. Qutlug' qadamjo", "Turkiston taraqqiyotidan", "To'raqo'rg'onning to'ng'ich sanoat korxonasi", "Axsikent va Aysi" kabi nasriy asarlar ham yozgan. Adabiyotshunoslikka doir "Yildoshlarim" nomli esse-xotiralar kitobi ham muxlislari qo'liga yetib borgan. Publitsist sifatida mustaqil O'zbekistonimiz, qalb amri bilan faoliyat ko'rsatayotgan g'ayratli, shijoatli zamondoshlarimiz, ilmga chanqoq yoshlarimiz hayotidan hikoya qiluvchi bir necha yuzlab maqolalari viloyat, respublika matbuotida e'lon qilingan.

Sodiq Sayhun To'raqo'rg'on tumani gazetasi – "Mash'al"da 38 yil faoliyat yuritib, muharrirlik darajasigacha yetgan. 2000-yil Prezidentimiz I. Karimov Farmoniga ko'ra "Shuhrat" medali bilan taqdirlangan. 1995-yili "Yilning eng yaxshi jurnalisti" sifatida O'zbekiston Jurnalistlar ijodiy uyushmasi mukofotining sovrindori bo'lgan. "Eng ulug', eng aziz!" ko'rik-tanlovida ikki marta g'oliblar safidan o'rin olgan. U taniqli publitsist, sermahsul shoir shu bilan birga adabiyotshunos sifatida e'tirof etishga arziydigan nozikta'b olim hisoblanadi. Bu fikrlarimizda zarracha mubolag'a yo'q, buni ijodkor olami isbotlab turibdi.

Ijodiga nazar tashlasak, istiqlool yillarida 25 ta nasriy va nazmiy kitoblar bitganini ko'ramiz. Ko'rinadiki, ijodkorning qator to'plamlari asosan mustaqillik yillaridan boshlab e'lon qilina boshladi.

Ayni mahalda qator kitoblarni chop etishga tayyorlab qo'ygan. Jumladan, nazmda "Temur bola qissasi", "Samodil" dostoni va "Farddasta". Nasrda "Yildoshlarim" (adabiyotshunoslikka oid). "Axsikent va Axxi" (2 jildli tarixiy asar).

"Temur bola qissasi". She'riy qissada Temur bolaning betakror hayoti juda qiziqarli va maroqli chiqqan. Bolalarga oson bo'lishi uchun har satri 7 bo'g'inli qilib, masnaviy yo'lida yozilgan. Tasvirlar tabiiy hatto mubolag'adek ko'rinsa-da, unda o'xshatishlar, jonlantirishlar, metafora va yana ko'plab tasvir vositalaridan juda o'rinli foydalanilgan. Madrasa mutolaasi chog'idayoq mudarrislarni lol qoldirgan:

O'tirmaydi tutilib,
O'qib tashlar but qilib.

Misralar mazmuni bugungi zamonamizga mos tushgan, yoshlarni bilimdon va hozirjavob bo'lishga undash kuchli.

Harflarga sharh berar,
Ta'rifga qiyos terar:

-**Alif** yigit – qaddi tik,
Dol go'yo chol – qad bukik.

Bu yerda harfiy san'at , o'z o'rnida tazod ham bor. Tashxis misralar badiiyatini oshirgan.

Nunning holi chiroyli,
Lom qarmoqdek kiroyi.

Yo – o'xshashdir quloqqa,
Dum – dumaloq **x**e – soqqa.

Domla tinglab qolar lol,
Rag'bat yog'dirar darhol.

-Bildik juda o'qibsiz,
Quyma qiyos to'qibsiz.

Temur bolaning xatti-harakati tasvirlari ham behad hayajonli, havasli.
Qofiyalar to'q, o'ynoqi va ohorli.

Suygani toy ham yarog',
O'ynasa bas, g'am yiroq.

Goh daraxt qil uchida,
Goh quyosh qilichida.

U yelkanli qayiqmas,
Shamollardan hayiqmas.

Toshiqadi sel bo'lib,
Ketar darrov el bo'lib.

Asar boshdan oxirigacha vatanparvarlik ruhi bilan sug'orilgan. O'qigan o'quvchi Temur boladek bo'lishni beixtiyor orzulaydi.

“Samodil” dostoni.Muqaddimasi atiga to'rt satrdan iboratu, lekin dostonning g'oyasi to'la-to'kis ifoda etilgan:

Qayerdagi xo'rlansa Vatan-
Zulm xalqni siqib sil etar.
Qayerdagi hurlansa vatan-
G'urur xalqni samodil etar.

Dostonda ibtidosidan intihosigacha baland ruh sezilib turadi. Ajdodlardan ham, sharofatbaxsh istiqloldan ham behad faxr tuyilgan holda o'tmish bilan bugun o'ziga xos uyg'unlikda berilgan.

Ko'hna Turon – ko'hna umrgoh,
Muqaddasim ajdodlarimga.
Samo suygan azaliy nurgoh
Mangu meros avlodlarimga.

Boboruhlar yuzimiz yorug',
Noshud voris emasmiz axir.
Qaramlikdan yeru el forig',
Xalqqa hurlik eng oliy faxr!

Doston faxriya satrlar bilan qayta-qayta Vatanga murojaat etib, juda ta'sirchan yakunlangan:

Jahon “Qoyil” der O'zbekiston!
Ko'kragingni ker, O'zbekiston!

“Farddasta”.Ko'p yillik ijodiy izlanishlar natijasi o'laroq badiiy tafakkuri teranlashgan adib 1000 ta farddan iborat yangi kitobga tartib bergan. “Quyosh

quchgan tomchilar”dek yuksak baholagan holda mas`uliyati ham yuksakligini
yurak-yurakdan his etgan holda qalam tebratgan-:

Hikmatona bayt – shabnam tomchi,

Quyosh quchgan mitti ilhomchi, -

ning ilhomi bir necha yillik ijod xirmoni yaxlit kitob darajasiga yetguncha qattiq
zahmat chekkani yaqqol ko`rinib turibdi. Chunonchi, o`zbek adabiyotida birinchi
bo`lib faqat fardlardan iborat risola yaratish, shoirlar kamdan-kam yozadigan janrda
ko`pdan-ko`p ter to`kilganini hech kim inkor qilolmaydi. Axir bir mavzuda
o`ntadan tortib, yigirmattagacha fard yaratish o`z-o`zidan bo`lmaydi. Mavzularning
boshi deb – milliy g`oyaning tanlangani esa yanada ahamiyatli va qimmatli:

Uy mustahkam sinchi bilan,

Yurt mustahkam tinchi bilan.

Tinchlik jonday suyuk yurt –

Kelajagi buyuk yurt.

Vatan ko`rki taraqqiyotdan,

Erkin xalqim xurram hayotdan.

Vatanningni sevsang o`zingni ko`rsat,

Yillarga tatisin lahzalik fursat.

Halol yashasa har on,

Yasharmiz to`q, farovon.

Foyda-yu ziyonning bilolsak farqin,

Birimizni ikki qilarmiz har kun.

Yurt tinchligi, Vatan taraqqiyoti va xalq farovonligi haqida shiorga monand satrlar emasmi bu?! O'qigan o'quvchi ezgu maqsad va unga yetishishni yanada teranroq anglasa ajabmas.

“Farddasta”ning so'nggi bo'limida turfa va aralash mavzular qamralgan. Endi bir mavzuda bir necha emas, yuzga yaqin mavzuda yuzga yaqin fardni o'qiymiz. Uslubi boshqacharoq ikki qatorli she'rlarga bir qatorli sarlavhalar qo'yilgan. Har birini naqlnoma darajasiga ko'tarish shoirning ijodiy niyatiga aylanganday tuyuladi.

Aql va farosat

Oydin bilan tongni farqlash farosat,
Aqlingga libos bil, u bilan yasat.

Inqiroz va rivoj

Birlashmasa qay millat –
Inqirozga shay millat.

Gul va bulbul

Xo'p go'zal-u sun'iy gul,
Yaqin yo'lamas bulbul.

Chapak

Bir qo'l chapak chalolmas,
Juftiga hech malolmas.

Daraxt va shamol

Egilmasa daraxt sindirar shamol,
Ta'zimda omonlik, chinakam kamol.

“Yildoshlarim”. “Yildoshlarim”da Sodiqlik Sayhun zukko adabiyotshunosday ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi. Kitobning nomiyoq yangi so'zdan iborat. Agar sinchiklab o'qilsa, shoir o'zi bilan bir vaqtda, ya'ni 1954-yilda tug'ilgan ijodkorlarning 60 yillik hayoti va ijodiga adabiyotshunos, hatto tilshunos nuqtai nazaridan nigoh tashlaydi.

To'plamdan o'rin olgan shoir, yozuvchi va adabiyotshunoslar – Muhammad Yusuf, Ziyovuddin Mansurov, Boqiy Mirzo, Temurbek va Is'hoq Nishonovlarning mo'jaz adabiy portretlarini yaratgan. Boshqalarning asarlaridan farqli hamda

qimmatli jihati har bir yozuvchi yoki shoir haqida bir-biriga o'xshamagan fikrlar, tahlillar, mulohazalar, muqoyasalar bayon qilingan. Ilmiy mushohadalarini ham ommabop tarzda, go'zal, yangi va ohorli so'z hamda iboralar qo'llab, go'yo "sayhunona" uslubini isbotlash uchun izlangan chamasi. Amalda deyarli erishgandek.

Yildoshlari talantli va taniqli ijodkorlar bo'lgani uchun ular to'g'risida jo'yali so'z aytish, asarlari haqida adabiyotshunoslardan qolishmaydigan maqomda turib, tahlilu tavsiflarda boshqalar aytolmagan va aytmagan jihatlarni o'tkir qalamidan to'kilgan samimiy satrlarda kitobiga qatlagan. Har bir yildoshi ijodining o'ziga xos tomonini ko'ra olgan holda o'ziga mos baholash niyatini ijobatlagan, desak ham xato emas.

Sodiq Sayhun avvaldan adabiy maqolalar yozib, bu borada muayyan tajriba to'plaganligini ham unutmasligimiz kerak. U "Namangan Shavqiysi", "To'raqo'rg'on Hayrati", "Ibratning ibratlari" kabi esselar muallifi xamdir. Uch ulug' insonning XIX-XX asrlar adabiyoti taraqqiyotiga, ma'rifatparvar sifatida xalq tafakkurini boyitishga qo'shgan hissasini g'oyat maroqli yozib, ularni jamlagan holda mo'jaz risola tartiblayotibdi. Uning birinchi nusxasi tayyorlandi.

"Axsikent va Axi". Bu ikki yondosh va nomdosh shahar Sirdaryo yoqasidagi ko'hna tepaliklarda joylashgan. Lekin hali hozirgacha ikkisini bir-biridan farqlamay, aralashtirib tilga olish, bir shahar tasavvur etish davom etib kelayotganiga loqayd qarab turolmagan adib tarixiy asar yozishga keyingi paytda jiddiy e'tibor bilan qaradi. Natijada 2 ta kitob yaratildi: biri Axsikent haqida, yana biri Axi haqida. Chunki Asiriddin Axsikatiy Axsikat farzandi, Zahiriddin Muhammad Bobur Axi podshosi Umarshayx Mirzo oilasida tavallud topgan. Har ikki ulug' allomalarning tug'ilgan va yashagan shaharlari boshqa-boshqa. Ana endi adib nima uchun qalam tebratganini sezgandaysiz. Axsikentlik allomalar qator-qator, Axsilik allomalar xam qator-qator. Ularning shaharlari ham alohida, yashagan davrlari ham alohida – to'rt asr oldin va orqada. Ommabop tarixiy kitob, albatta, Namanganning 2500 yillik o'tmishining eng yorqin davrlarini ham ilmiy, ham haqqoniy yoritgani bilan qimmatlidir.

II.2. Shoir she'riyatining mavzu jihatdan rang-barangligi: lirik she'rlari, ishqiy g'azallari va doston, she'riy topishmoq hamda fardlari

Sodiq Sayhun Namangan adabiy muhitida qalam tebratadigan shoirlar orasida sadoqat va muhabbat mavzusini eng ko'p tilga olgan shoirdir. Shoirni "sadoqat kuychisi" deya baralla aytgini keladi kishi. Boisi, uning barcha she'rlarining poydevori muhabbat va sadoqat hisobiga qurilgan. Muhabbat adabiyotning ustunidir. Sadoqat esa muhabbatning tug'ilishiga doyalik qiladi.

"Sadoqat surati" she'rida, sadoqat sabrning farzandi tarzida talqin qilingan. Darhaqiqat, sadoqatning tag zamirida sabr yotadi. Sabrli kishigina sadoqatli bo'la oladi. Va sadoqat tilda emas balki yurakda bo'ladi. Va u hamisha qalbimizni yangi umidlarga to'ldiradi.

*Sadoqat suyukli farzand sabrga
Ajdodi so'z emas tilga begona
Ishq qasri – yurakda yashasa birga
Qaqnusga aylanar umidlar yona.¹⁰*

Shoir "Tasodif" she'rida oiladagi o'zaro sadoqatni barcha balo qazolardan asrovchi posbon deya ta'riflagan. Haqiqatdan, oilada ayol va erkak orasidagi rishtalar ishonch va sadoqatga qurilgan bo'lsa, bunday oilani hech qanday yovuz kuchlar- u g'iybatlar ajrata olmaydi. Shoir ana shu haqiqatni go'zal misralarda yoritib bergan,

*Ayblay olmayman sizda yo'q gunoh,
Rashki qo'riqchidir asragay kuyov.
Balo-qazolarga **sadoqat** panoh,
Bir kam dunyo axir hayot beayov. (19- bet)*

¹⁰ Содик Сайхун. Ёр келар кун-Тошкент, 1995, 9-бет. Барча мисоллар шу китобдан олингани учун саҳифалар кавс ичида берилади.

Har bir inson baxtli yashashni xohlaydi. Shoir talqinicha, sadoqatli insonlar albatta baxtli bo'ladilar. Chunki, birovni sadoqatini suiste`mol qilib, xiyonat qilganlar hech qachon baxtga yerisholmaydilar. Shoir aytmoqchi:

Visolni ko'zlasang Sodiq

Sadoqat sozini tutgil

Tuganmas baxt ila iqbol

Sadoqat bag'rida jamdir. (20- bet)

Shoirning sadoqat mavzusiga qo'l urishida ismining ham ta`siri katta. Sodiq ismi ijodkorga ilhom bag'ishlagandek go'yo. Sababi sadoqat sodiq vafo so'zlari bir sinonimik qatorni tashkil qiladi. Sodiq arabchadan olingan bo'lib, sadoqatli, vafodor ma`nolarini anglatadi.¹¹

Shoirning "O'n sakkiz yosh eding" she`rida lirik qahramon ilk muhabbatini yodga oladi va bugungi kunidan ham u juda mamnun. Garchi unga birinchi muhabbatni nasib bo'lmagan bo'lsa ham, lirik qahramon taqdiriga sadoqatli ayol bitilganidan juda ham xursand. Har lahza yorining ko'zlariga qaraganida olovli muhabbatni, sadoqatni ko'rib turishdek baxt bo'lmasa kerak. Barchamiz ana shunday baxtga ega bo'lishni xohlaymiz. Shoir aytganidek:

Vaqt o'tdi seningdek beparvo, be un

Yuzlarda qoldi-ku o'chmas izlari

Toleim ufqini bezadi bu kun.

Sadoqat timsoli yorim ko'zlari. (18 -bet)

Sodiq Sayhun ayniqsa vatanga sadoqatli bo'lish kerakligini alohida ta`kidlab o'tadi.

Sodiq farzand zahmatdan qochmas.

Yelkalaydi xalqin yumushin.

Yot ellarga quvvatin sochmas,

Oltin bilan yurtin kumushin¹²

¹¹ Соҳиб Камол. 505 исм маъноси – Қарши: Насаф. 2004. Б 19.

¹² Содиқ Сайхун. Нурпок- Наманган, 2010. Б 61.

Xalqiga, tiliga, oilasiga, adabiyotiga sadoqatli kishilar, shoirlar ijodiga ulkan parvozlar tilab qolamiz.

Sodiq Sayhun lirikaning qator janrlarida barakali ijod qilgan. G'azalchilik ham ijodkorga begona emas. Shuni ham aytib o'tish kerakki, shoir adabiyotshunoslik ilmidan, she'riyatdan, xususan aruzdan yaxshigina xabardor. Uning nozik tomonlarini yaxshi tushunadi. G'azalnavis shoirlarning asarlarini ham ko'p mutolaa qilgan. Shu sabab ko'pgina g'azallari kitobxonda iliq taassurot, yaxshi kayfiyat uyg'otadi.

Muhtaram Prezidentimizning "Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor" nomli asarida adabiyot haqida, ijod ahli haqida shunday fikrlarni o'qiymiz: *"Xalqimiz adabiyotni muqaddas va ulug' bir dargoh deb biladi. Ana shunday bahoning o'zi el-yurtimiz hayotida bu soha namoyandalariga, ularning haqqoniy so'zi, chuqur ma'noli asarlariga ishinch, hurmat-e'tibor va ehtirom azaldan yuksak darajaga ko'tarilganini yaqqol ko'rsatib turibdi. Hech shubhasiz, ziyolilarning ilg'or qismi bo'lmish badiiy adabiyot vakillarining xalqimiz qalbini, uning oily maqsadlari, bugungi hayoti, taqdiri va kelajagini yaqindan biladigan insonlar sifatida jamiyatimizdagi o'rni va ta'siri beqiyosdir"*¹³. Dohiyona aytilgan gaplarga qo'shilmay bo'lmaydi. Xalqimizning ma'naviy hayoti rivojida milliy tafakkurimizning ajralmas qismi bo'lgan ona tili va adabiyot fanining munosib o'rni bor.

Alisher Navoiy, Bobur kabi benazir allomalar, Abdulla Qodiriy, Fitrat, Cho'lpon, Oybek singari o'z xalqi uchun, kelajagi uchun butun hayotini bag'ishlagan ulug' insonlar ko'z oldimizda gavdalanaveradi. Yozuvchi va san'atkorlarimiz har qanday qiyinchiliklarga qaramasdan qalb amri bilan o'z kasblariga, o'z e'tiqodlariga sodiq qolgan holda milliy o'zligimizni anglash, xalqimiz ongu tafakkurini o'zgartirishdek ezgu ishlarga butun hayotlarini bag'ishladilar. Iste'dod, talant hammaga ham nasib etavermaydi, u Yaratgan tomonidan beriladigan ilohiy ne'matdir. Shining uchun ham ularda hayotni his qilish boshqalardan ancha oldinda bo'ladi. Yana Prezidentimiz asarlariga murojaat

¹³ **Каримов Ислам.** Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор. –Т.: "Ўзбекистон" 2009, 7-бет.

qiladigan bo'lsak, "... shoir va adiblarni doimo jamiyatning oldingi saflarida yuradigan, hayotni kuzatib, odamlarning yuragida, dunyoqarashida bo'layotgan o'zgarishlarni hammadan avval sezib, ularni ta'sirchan obrazlar, yorqin badiiy bo'yoqlar orqali mahorat bilan yoritib bera oladigan, el-yurt uchun kuyinib yashaydigan fidoyi insonlar, deb bilaman"¹⁴.

Sodiq Sayhun badiiyat olamida o'z yo'lini topib olgan, yuksak e'tiqodiga sodiq bo'lgan shoirlar qatorida turadi. Shoir she'riyatni yaxshu tushunadi, his etadi, uning doimo o'sishda, o'zgarishda, harakatda ekanini ham bir oz bo'lsa-da unutmaydi. Uning, ya'ni she'rning "... qadim zamonlardan boshlab odamning hurlikka intilishidan dunyoga kelgan"(adabiyotshunos Ibrohim G'afurov)¹⁵ini ham yaxshi his etadi. Har qanday quvonch va xursandchilik g'am va tashvishlar hisobiga kelishini esda saqlashi kerak. Zero, baxt hamma vaqt ko'z yoshlari evaziga kelishini ham yaxshi bilamiz.

Talantli shoir Sodiq Sayhunning 1993-yilda e'lon qilingan to'plami "O'n sakkiz yosh eding" deb nomlangan. To'plam she'rlar, lavha va hikoyalardan tuzilgan. Kitobga taniqli adabiyotshunos olim Sultonmurod OLIM "Jo'shqinlik" nomli kirish so'zini yozgan. Undan biz quyidagi fikrlarni o'qiymiz:

*"Sodiq Sayhunni yaxshi bilaman. Jo'shmagan kuni yo'q uning. Bu jo'shqinlik hayotdan olingan shunchaki zavqu shavqninggina mevasi emas. Kecha-kunduz yurtdoshlariga so'zdek bir sehrli vosita orqalinimadir xizmat qilishni ko'zlaydi. Hayotni kuzatadi, o'zgarish va yangiliklarni tez payqaydi, nimalardandir xunobi chiqadi – darhol shularga o'z munosabatini bildirishga oshiqadi"*¹⁶. To'plamdan yigirmata katta-kichik she'rlar, fard, tuyuq va ruboiylar o'rin olgan Bundan tashqari kitobdan qiziq-qiziq lavha va hikoyalar ham joy olgan. Olimning shoir she'rlari haqida aytgan fikrlari ham e'tiborlidir: *"She'rlarida ham bevosita o'zi kuzatib yuradigan, qalbiga yaqin hayot qalamga olinadi. Uning uchun O'zbekistonimizning istiqbolliyu istiqboli ham, xalqimizning saxovatiyu Vatanga buyuk mehri ham, ertamizning bugunimizdan yaxshiroq bo'lishi uchun tinimsiz kurash ham, boringki,*

¹⁴ Юқоридаги асар, 8-бет.

¹⁵ **Гафуров Иброҳим.** Ўттиз йил изҳори. Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти. 1987 йил, 223-бет.

¹⁶ **Султонмурод Олим.** Жўшқинлик. Китоб номи: "Ўн саккиз ёш эдинг". Наманган, 1993. 2-3-бетлар.

sevgi va hijronu baxt va bevaqt o'lim ham, dala va dehqon munosabati ham she'rda yo'l-yo'lakay yoki beta'sirgina tilga olib ketilaveradigan masala yo mavzu emas. Ular shoirning ko'rgan-kechirganlariyu iztiroblari hosilasi yanglig' qalamga olinadi"¹⁷. ..Hajman unchalik katta bo'lmagan bu to'plam ham boshqa ijodkorlar, ..?har bir yosh uni yangilatadigan mavzu ishq-muhabbat haqida. Ishq, muhabbat, dard bor joyda she'r ham bo'ladi. Oshiqning ohi misralarga ko'cha boradi va bu insonlar o'rtasida muhabbatni paydo qiladi. Zero, mashhur shoirimiz Xo'janazar Huvaydo bir baytda shunday yozadilar:

Muhabbatdan muhabbat bo'ldi paydo,

Muhabbatsiz kishidan qoch, Huvaydo.

Sodiq Sayhun badiiy tafakkuri keng, o'ziga va so'ziga sodiq shoirlarimizdan. Garchi poytaxtda yashab ijod qilmasa-da, 20 dan ortiq kitoblar chiqarib, Namangan adabiy muhitida mustahkam o'ringa ega bo'ldi. Sevimli shoir nazmda ham, nasrda ham birdek yozadi, barmoq, aruz va erkin vaznlarda birdek teng ijod qiladi. Uning ijodiga nazar tashlar ekanmiz, kattalar bilan bir qatorda jajji bolalarga atab yozgan bir qator kitoblari, turkum she'rlari ham borligi bizni sergaklikka chorlaydi. Yosh avlod tarbiyasiga doir kichik-kichik she'rlarida bolalarcha soddalik va beg'uborlikni ko'rganday bo'lamiz. Turli yoshdagi kitobxonlar ularni tinmay mutolaa qilishdan charchamaydilar. Shoirning yuksak mahorat bilan yo'g'rilgan she'rlari bugungi porloq zamonamizga hamohang jaranglamoqda.

“So'zi ham o'ziday jo'shqin, ta'sirchan” (Ziyoviddin Mansurov) Sodiq Sayhunning “Nurpok” to'plamiga 50 dan ortiq she'rlari jamlangan. She'rlar mavzusi rang-barang. Shoir she'rlarida xalqchillik, milliylik va zamonaviylik kuchli, she'rlarida qo'llagan badiiy obrazlar ham o'ziga xos. Shuni ta'kidlamoq joizki, keying vaqtlarda ijodkor doston va publitsistikaga ham qo'l urib, qator muvaffaqiyatlarga erishmoqda. Boisi, asarlarining “*mag'zi to'qligi-yu, badiiy puxtaligi*”¹⁸ dadir. Muhtaram Prezidentimiz I. Karimov farmoniga binoan shoirning 2000-yilda “Shuhrat” medali bilan taqdirlangani ham mehnatiga berilgan bahodir.

¹⁷ Султонмурод Олим. Жўшқинлик. Китоб номи: “Ўн саккиз ёш эдинг”. Наманган, 1993. 2-3-бетлар.

¹⁸ Бу ҳақда қаранг: Зиёвиддин МАНСУР. Сўзи ҳам ўзидай жўшқин, таъсирчан Нурпок китоби, 3-4-бетлар.

Biz shoir ijodini sinchiklab kuzata turib, bir narsani payqaymiz: shoir tug'ilib o'sgan joy, oila, uni tarbiyalab voyaga yetkazgan insonlar – yaqinlari she'rlarining asosiy manbasiga aylangan, chunki bular shoir biografiyasi bilan bog'liq. Shoir hayotini yaxshi bilmasdan turib uning she'rlarini o'rganish, tahlil qilish ancha mushkul. Kitobdan joy olgan “Qadr” she'ri quyidagi misralar bilan boshlanadi:

Yuragimning dardlariga sajda aylab

Yasharmidim xalq joniga jon bo'lmasam.

Ilhom ichim erinmasdan kavlarimidi

Qat-qat she'rlar ko'milmagan kon bo'lmasam¹⁹.

Ziyoli oilasida o'sib-ulg'aygan shoir o'ziga rostgo'ylik, samimiylilik va halollikni shior qilib oldi. Shoir she'rlarining asosiy qahramonlari ham sevgisiga sodiq, Vatan uchun jon fido qiluvchi, o'z sohasi bilimdoni bo'lgan samimiy insonlar. Zero, shoir o'zi aytganidek:

Farzand deya Vatan suyub qucharmidi

Qaddi qalqon nomus ila or bo'lmasam.

Tuyg'ularim farishtadek ucharmidi

She'riyatga sadoqatli yor bo'lmasam. (5-bet)

Shoir she'rda Vatan qadrini har narsadan ustun qo'yadi. Vatan farzandini yeru ko'kka ishonmayapti. Dunyo go'shalari qandaydir fayzsiz ko'rinyapti, bulbul biyron sayramayapti. Buning uchun esa albatta bog' kerak. Bog'ni vatanga mengzasak, bulbul Vatanning sodiq yoshlaridir. Farzand ham buni his qilib yashayapti. U, kerak bo'lsa, Vatan uchun qadri baland tog' bo'lgisi kelyapti:

Dilband dunyogo'shalari fayzsiz qay kun,

Bulbul biyron sayrarmidi bog' bo'lmasa.

Tiriklikdan tonib ketar Sodiq Sayhun

Payti kelib qadri balandtog' bo'lmasa!.. (5-bet)

She'rda qo'llangan *bulbul*, *bog'*, *tog'* so'zlari badiiy obraz bo'lib, metaforiklashgan. Shoir barmoq, aruz va erkin vaznlarda teng ijod qiladi. She'rlarini turli yoshdagi kitobxonlar mutolaa qilishdan charchamaydilar, kattalarga ham,

¹⁹ **Содиқ Сайхун.** Нурпок.- Наманган, 2010, 5-бет. Барча мисоллар шу китобдан олингани учун саҳифалар қавс ичида берилди.

yoshlarga ham birday yozadi. Yosh avlod tarbiyasiga doir kichik-kichik she'rlari ham talaygina. Ularda bolalarcha soddalik va beg'uborlikni ko'ramiz.

Ona-Vatan mavzusida yozgan she'rlarida vatanga sodiq bo'lish, uning koriga yarash va kelajagi uchun qayg'urish har bir insonning qalb nidosiga aylangan. Shoir bir to'rtligida Vatanni ikkinchi yurakka mengzaydi:

Men uchun ikkinchi yuraksan, Vatan,
Jonimga havodek keraksan, Vatan.
Baxtsiz yashamog'im mumkin-u, ammo
Jamiki baxtdan ham yuksaksan, Vatan.(56-bet)

Ona-Vatan haqida ko'p va xo'p yozilgan. Hazrat Alisher Navoiy, shoh va shoir Bobur, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Muhammad Yusuf kabi shoirlar ham Vatanni har narsadan ustun qo'yishgan, lekin shoirning ko'ngli to'lmayapti. Soxta boylik va orzu-havas ketidan quvib, uzoq yurtlarga ketayotganlarni ham xushlamaydi. Yurt qadri barcha boylikdan afzal. Shu vatanda tug'ilib o'ssang-u, yurtga kamarbasta bo'lmasang qanday farzand bo'lding? Buni shoir doim unutmaydi va kelajagimiz vorislariga ham eslatganday bo'ladi:

*Sodiq farzand zahmatdan qochmas,
Elkalaydi xalqin yumushin.
Yot ellarga quvvatin sochmas,
Oltin bilar yurtin kumushin.(61-bet)*

Sodiq Sayhun she'riyatining tarbiyaviy ahamiyati haqida ham bir qancha iliq fikrlarni aytish mumkin. Bu o'rinda Ko'hna Sharqning qadimiy an'analari ruhiga mos asarlar ko'pchilikni qiziqtirishi tabiiy.

Ijod o'ta murakkab jarayon So'z va uning ta'siri uchun bevosita javobgarlikni his eta bilish, yuksak mas'uliyatni yelkada olib yurishning o'zigina bo'lmaydi. Shoir kezi kelganda g'o'r va no'noq asarlari uchun ham she'rxon oldida javobgar ekanligini doimo yodda tutmog'i kerak.²⁰

²⁰ Rasulov A. Badiiylik – bezavol yangilik. – Toshkent: Sharq, 2007, 38-bet.

Sodiq Sayhun she'rlaridagi mavzular xilma-xil. Keling, undagi farzandlik burchi ifoda etilgan, onani ulug'lovchi she'rni ko'rib chiqaylik. Shoirning muxammas (arabcha besh misrali she'r demak) shaklida yozgan "Ona" she'ri quyidagi misralar bilan boshlanadi:

*Yorug' olam qayda edi qayda edik asli biz,
Alloh suygan ulug' zotlar jon rishtasi – naslimiz,
Quvonch berdi, umid berdi diydorimiz, vaslimiz,
G'am-g'ashimiz yelkasida umri yukli karvon-a,
Ming ardoqqa arzir ona yana o'zi parvona.*

Onasiga dil-dildan achingan farzandning qalb nolalaridir bu. Farzandning dil iztiroblari ulg'aygach ham onasiga quvonch bera olmaganidir. Har qanday ona farzandi o'stirar ekan, uning kamolini ko'rmoq, yutuqlaridan quvonmoq istaydi. Onalar farzandlariga hech qachon ozor yetmasligini xohlaydilar. Bunga javoban farzand ham onasi uchun sodiq posbon, fidoyi jon bo'lmog'i kerak. Ammo farzand hali yosh, u o'smirlik bosqichidan o'tgan, biroq hayotda hali o'z o'rniga ega bo'lanicha yo'q. Shunday paytda...

*Go'dagini yolg'izlatib sira yiroq ketmagay,
Og'ushida zavqu orom qiyosga so'z yetmagay,
Allalaydi mijja qoqmay, mehrin minnat etmagay,
Fikru o'yi farzandida munis, jafokash jon-a,
O'g'il-qizi navniholu uydagi quyosh – ona.*

Ha, shubhasiz, ona o'z o'g'li uchun qayg'uradi, uning istiqbolini o'ylab tashvishlanadi. Tilimiz chiqqanida bir quvongan bo'lsa, xasta bo'lsak boshimizda parvona bo'lgan. Yuzlarida hosil bo'lgan ajinlar, sochlarida oq tolalarning ko'payib borishi o'sha vaqtda ko'p ham bizni tashvishga solmagan, lekin onalar uchun eng aziz boylik farzandining sog'-omon o'sishi:

*Biyron-biyron tillarimiz chiqqan ilk bor "anna"lab,
Oq sutiga tenglab nonni qo'l cho'zganmiz "nanna"lab,
Xastalansak azoblangan yurak-bag'rin parmalab,
Kulgimizdan kulib ketar butun borliq – jahona,*

Bolalarin omonligi yashagani shohona.

She'rdagi eng muhim jihat shuki, xalqimizda "Onaning ko'ngli bolada, bolaning ko'ngli dalada" degan hikmat bor. She'r esa buni yaxshi ma'noda inkor etadi. Chunki onaning ko'ngli haqiqatan ham bolada, ammo bolaning ham ko'ngli onajonisida. U ham onasiga ortiqcha tashvish bo'lishni istamaydi. Umrining qolgan qismida onasiga quvonch olib kelishni istaydi. Onajoni otajoniga ham sadoqat va mehru muhabbatini namoyish qila olgan. Uzoq yillar umru guzaronlik qilgan esada, unga tik boqib gapirmaydi. Oilada farzand ko'ngil rishtasini bog'lashini ham his etadi. Bu ehtirom har qanday balandparvozlikdan holi. Anchayin xokisor, anchayin qayg'uli, lekin eng muhimi sodda hamda samimiy. Lirik qahramon xursand kunlarning aksi – qayg'uli kunlari ham borligidan sarosimaga tushadi – bevaqt ajal onasiga chang solmasligini istaydi:

*Otamizga sadoqatda mehri turar tovlanib,
Yuzlariga tik boqolmas, gap qaytarmas yovlanib,
Bolasi bir – qismati bir ketgan qattiq bog'lanib,
Oilaning Humo qushi yagonadir-yagona,
Ajal quchib, bevaqt uchib ketmasin-ey hech ona!..*

Xuddi mana shu sarosima lirik qahramonni onasidan judo qildi. Uning ko'ziga dunyo qorong'i, ko'ngli hech narsa istamaydi. "O'kinch" she'rida onasidan bevaqt judo bo'lgan farzand iztiroblari bayon etiladi:

*Yorug' olam mehmonimiz, kuzatguvchi vaqt erur,
Onalik uy quchog'ida shodlik doim naqd erur,
Umr bo'yi bola bo'lib yashamoqlik baxt erur,
Mehribonim, siz yonimda yo'qligingiz bilindi,
Onasizlik og'ir ekan, ko'zimga yosh ilindi.*

Onasi tiriklik chog'ida qayg'u-alam yo'q edi, oila baxtli hayot kechirmoqda edi. Baxtli bolalik bir umr tark etmasligini istardi, lekin ... ana shu armonlar alam to'la misralar qatida bo'y ko'rsatganday bo'lyapti:

*Keksalikning bor gashtini sursangiz eh, netardi,
Sizga qarab boshim shunda osmonlarga yetardi,*

*Farzandingiz ko'nglidagi armon tugab ketardi,
Mehribonim, siz yonimda yo'qligingiz bilindi,
Onasizlik og'ir ekan, ko'zimga yosh ilindi.*

Rangin misralarga tuyg'ularning sofligini singdira olgan. Natijada, she'r onalarni ulug'lovchi yaxshi ijod amunalari qatoridan o'rin oldi.

Shoir uchun haqiqiy baxt pul ham, qo'sha-qo'sha uy-joy ham, xorijda ishlab chiqarilgan mashina ham emas. Baxt bu ko'rgan kuniga shukrona aytish, Vatan uchun oqar suv bo'lish. Zero, "Baxt nimadir?" she'rida shunday yozadi:

*Baxt shukrona ko'rgan kunningga,
Istiqboldan ko'ngling tutat toq,
Baxt istasang, sira turma tek,
Oqar suv bo'l, ayniydi ko'lmak.
Rizqing qirqma, yasha odamdek,
Baxt – Vatanda, tug'ilib-o'lmak! (36-bet)*

"Istak", "Tashvish", "Oqibat" kabi she'rlarida bugunning dolzarb muammolariga aylanib borayotgan bozorlarimizdagi olibsotarlik, aldamchilik, odam savdosi kabinoxush illatlar Vatanimizning ertasi uchun dog' bo'lib qolishidan ogoh bo'lishiga chaqiradi:

*Kimdir milyon-milyon pulning gadosi,
Avjiga minar eh odam savdosi,
Tinmasa aldanish, go'llik g'avg'osi
Vatanning ertasi ne kechar, do'stim?!
Ko'chalar bozorga aylanib ketsa,
Bozorlar ozorga aylanib ketsa,
Or-nomus mozorga aylanib ketsa,
Vatanning ertasi ne kechar, do'stim?!(38-bet)*

She'rdan shoir o'z yurtini jondan sevish, uning koriga kamarbasta bo'lib yashash maqsadini qo'ygan vatandoshlarimiz haqida yozadi. Biroq hamma ham shundaymi? Vatan ertasini o'ylayaptimi? Yurakning bu og'riq savollari shoirga tinchlik bermaydi:

*Yerni bosib yurib, yerni ko'rmasak,
Yurtning og'iriga yelka qo'ymasak,
Elga yuzimizni bugun burmasak
Vatanning ertasi ne kechar, do'stim?*

To'plamdagi qay bir asariga murojaat qilmang, unda shoirona nigoh sezilib turadi, u tabiat ne'matlari vositasida inson ruhiyatiga kuchli ta'sir etadi. Yer yuzida ro'y berayotgan adolatsizliklar, jangu jadallar, odamlar orasida tobora noyoblashib borayotgan mehr-oqibat, vafo, qadr tuyg'ulari baland ruhiyatda qalamga olinadi.

ishq-muhabbat mavzusidagi she'rlari ham anchagina, ulardagi lirik qahramon sevgisiga loqayd emas. Uni doimo ko'z qorachig'idek asraydi, e'zozlaydi. Shu bilan birga sevgini dasturxon qilib, har uchraganga aytaverganlar oxir-oqibat pushaymon bo'lishlarini xalqona usulda yozgan "Qiz o'tinchi" she'rida shunday ifodalaydi:

*Armon qushlarini dildan uchiring,
Shubha shaytoniga zahar ichiring,
O'zingiz sultonim, bir bor kechiring?!
Sizdan aynitganlar dugonalarim,
Do'st tutib, ishongan begonalarim. (29-bet)*

Chindan ham, "do'stlari" uni aro yo'lda qoldirib ketishdi. Qanchalik o'ylamasin, endi befoyda. O'zlari esa baxtlarini topib, do'stlarini muhabbatdan mosuvo etishdi:

*O'zlari tengini topib ketishdi,
Muhabbat bog'ida chopib ketishdi,
Ayriliq eshigin yopib ketishdi,
Sizdan aynitganlar dugonalarim,
Do'st tutib, ishongan begonalarim (29-bet)*

Lirik qahramon sevgisiga ham loqayd emas. Uni doimo ko'z qorachig'iday asraydi, e'zozlaydi. "O'n sakkiz yosh eding", "Tasodif", "Muhabbat bog'ida", "Ikkimiz", "Yor kelar kun", "Saodatxon qiyo boqsa" kabi she'rlarida ishq-muhabbat masalasi o'ta nozik satrlarga muhrlanganday bo'lgan, nazarimizda. Shoir o'tmishsiz kelajak yo'qligini ham har damda eslab turadi. Ajdodlarimiz ruhini ham

tez-tez yodga oladi, ularga ta'zim bajo keltiradi. Amir Temur haqidagi "Bobom", Bobur Mirzo haqidagi "Tole", "Taskin dil raqami" hamda buyuk bobomiz Ahmad al-Farg'oniya bag'ishlab yozgan "Oqibat" she'rlarida yurtimiz kelajagi uchun jon fido qilgan, manguikka muhrlanib qolgan buyuk siymolar gavdalanadi. Amir Temurga bag'ishlab yozgan she'rida shunday deydi:

*E-voh, oldingizda qarzimiz ko'pdir,
Ado qilolmagan farzimiz ko'pdir,
Hurlikka yetishdik, azmimiz ko'pdir,
Turklarni yagona tan etgan bobom,
Qudratin olamga tanitgan bobom!(6-bet)*

"Iltijo", "Otajon" she'rlari padari buzrukvori haqida. Otalik yukining naqadar og'irligini har qadamda his qiladigan shoir uchun otasi mangu tirik. "Otajon" she'ridan joy olgan quyidagi misralarga e'tibor beraylik:

*Menga kasbdir sizdagi odat,
El olqishi oily saodat,
Yiqitsa-da, ajalday ofat,
Rahmat yog'ar sizga, otajon,
Kirgandaysiz yuzga, otajon! (25-bet)*

Xalq og'zaki ijodi ta'sirida yozilgan baxshiyona she'rlar ham to'plamdan joy olgan.

Shoir qaysi mavzu haqida yozmasin, haqiqat va sadoqat so'zlarini o'ziga shior qilib oladi. Agar undan chekinmoqchi bo'lsa bu shoir uchun o'lim. O'zi aytmoqchi:

*Sig'inganim tanho haqiqat,
Dilga sodiq dastyordir tilim.
Intilganim adolat faqat,
Chekinmoqlik vijdonga o'lim!*

Shoirdagi jasorat, shiddat, fosh qilish usuli she'r qadrini oshirgan.

Sodiq Sayhun bolalarga bag'ishlab she'rlar, she'riy topishmoqlar va fardlar yozgan. Shoir biror she'rini bolalarga yoki kattalarga deb ajratmaydi, lekin ularda ma'no mushtarakligi, uyg'unligi kuzatiladi. Bu xususiyat ham faqat shoirning

o'zidagina kuzatiladi. Bolalarga bag'ishlab ularning zehni iqtidorini sinashda yordam beradigan kitobi "O'qi, tingla, o'ylab top" deb nomlangan. U, asosan, topishmoq she'rlardan tashkil topgan. To'plam 1995-yilda Toshkentda "Cho'lpon" nashriyotida o'n ming nusxadan ortiq chiqarilgan. Bir oz o'may, kitob o'quvchilari o'qituvchilarga, yoshlari kattalarga birdek qo'lma-qo'l bo'lib ketdi. Kitobga mashhur adabiyotshunos olim, xalqaro Ahmad Yassaviy mukofoti sovrindori Sultonmurod Olim yoshlarga maslahat tarzida "Zehn tezlay desangiz..."²¹ nomli so'zboshi ham yozgan. Kitobcha quyidagi to'rtlik bilan ochiladi:

O'qishga soz qisqa she'r,

Sarlavhasiz o'qib ber.

Eshitgan o'ylar shu choq,

Axir bular topishmoq.

*Biz yaxshi bilamizki, hayot shu qadar go'zal! Atrofga qarab to'ymaymiz. Biz Yerdan yashaymiz, osmonimiz esa bizga boshpana. Quyosh kuduzi nur sochadi, oy esa yoritadi. Atrofimizni yam-yashil tabiat o'rab olgan, bizga borliqdagi barcha yaxshi narsalar yaratgan tomonidan berilgan. Inson o'z aqlu shuuri bilan ko'plab texnikalarni yaratgan, yaratmoqda. Demak, bizning yaxshi yashashimiz uchun barcha narsalar Alloh tomonida muhayyo qilib qo'yilgan. Odam va olam haqida shunday qiziqarli narsalar she'rga solingan. Biz mazkur kitobni o'qish jarayonida ana shunday jumboqlarga javob topganday bo'lamiz*²². Bu topishmoqlar haqida olim gapirarkan, u kitobxonga ma'qul kelishini, nihoyatda ixchamligi, ikki yoki to'rt satrdan iboratligi, tilining soda va ravonligi, undagi ta'rifu tavsiflar topishmoq javobini osonlashtirishini ta'kidlagan.

Kitobdan qushlar va parrandalar, hayvonlar, meva, sabzavot, don va poliz mahsulotlari, daraxt va o'simliklar, ona tabiat, o'quv qurollari, uy-ro'zg'or buyumlari, duradgorlik, inson a'zolari, raqamlar va texnika haqida she'r-topishmoqlar tartiblangan.

²¹ **Содиқ Сайхун.** Ўқи, тингла, ўйлаб топ! (Топишмоқ шеърлар) Т.: "Чўлпон" нашриёти, 1995. 35 б.

²² Фикрлар адабиётшунос **Султонмурод ОЛИМ**нинг китобга ёзган сўзбошисидан фойдаланилди.

III bob. Sodiq Sayhun nasri va badiiy xususiyatlari

III. 1 . Sodiq Sayhun nasri va dostonlari

Sodiq Sayhun butun hayotini badiiy ijodga, jurnalistikaga baxsh etgan desak, mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Kattalarga ajoyib she'r va g'azallar bitar ekan, yoshlarni ham diqqatidan qochirmaydi. Bugungi kunda o'quvchilarga yaxshigina tanish bo'lib ulgurgan "O'qi, tingla, o'ylab top", "Boburning bolaligi" to'plamlari "Cho'lpon" nashriyotida ko'pming nusxada chop etilgani va jajji kichkintoylarning sevimli kitoblariga aylangani fikrlarimiz tasdig'idir. "Boburning bolaligi" kitobi she'rlar va dostonidan iborat bo'lib, 1994-yilda Toshkentning "Cho'lpon" nashriyotida o'n ming nusxada chop etilgan va bolalarga bag'ishlangan shoirning birinchi kitobidir. Shoir kitobni yaxshi niyatlar bilan bo'lajak nabiralariga bag'ishlagan.

To'plamdan joy olgan she'rlarida shoir bolalarning, ya'ni kichkintoylarning o'ziga yarasha dunyosini batafsil ochib berishga, jozibador va ta'sirchan satrlariga teran fikrlarini jo qilishga intiladi. Bir-biridan qiziqarli topishmoq fardlarida bir lahza o'yga toldiradi, topqirlikka undaydi. "Boburning bolaligi" dostonida esa shoh va jahongashta shoir Zahiriddin Muhammad Boburning bolaligi haqida o'ta qiziqarli, jozibali va ta'sirchan hikoya qiladi.

"Boburning bolaligi" dostoni 1993-yilda yozilgan bo'lib, uning tarkibi quyidagicha:

1. Muqaddima.
2. Qo'sh ismli shahzoda.
3. Orzu.
4. To'y.
5. Samarqandga sayohat.
6. Ur, Bobur!
7. Alvido, bolalik!
8. Xotima.

Doston muqaddima va xotimadan tashqari olti bobdan iborat bo'lib, masnaviy²³ janrida yozilgan. Barmoq vaznining yetti bo'g'inida, bu bejiz emas albatta. Odatda bunday bo'g'inli dostonlarda harakatlar tezlashgan bo'ladi, ikkinchidan o'quvchi qiynalmasdan o'qiydi va she'riy ertaklarga o'xshab yozilgan. (Esalng: Hamid Olimjon ertak-dostonlari ham yeti bo'g'inli barmoqda yozilgan). Bizga ma'lumki, Sodiq Sayhun adabiyotchi ustoz oilasida tavallud topgan, oila muhiti yoshligidan unda adabiyotga, she'riyatga havas uyg'otdi. Otasidan, ayniqsa xalq og'zaki ijodini yaxshi bilgan sehrli ovoz sohibi bo'lmish onajonidan ertagu dostonlarni va ko'plab termalarni tinglab, hatto yod olib katta bo'lgan Sodiq Sayhun ham mukammal ijodkorlar qatoridan o'rin olishga musharraf bo'ldi. Bu fazilat xalqona ruhda yozilgan qator dostonlarida namoyon bo'ladi. Jumladan, biz fikr yuritmoqchi bo'lgan Boburning yoshlik yillaridan hikoya qiluvchi dostoni quyidagi misralar bilan boshlanadi:

*Yillar yo'li uzundir,
O'ylab ko'ngil mahzundir
Qiziq asli bu dunyo,
Yonma-yondir tun-ziyo.
Kimdir kellar – ochar ko'z,
Kimdir aytar so'nggi so'z²⁴.*

Dostonning *muqaddima* qismida inson uchun berilgan umr, uning g'animatligi, har bir kishi hayotda yashar ekan, albatta, oily hakam – vaqtning qadriga yetmoqligi haqida chuqur falsafiy mushohada bayon qilingan. Vaqtни go'yo erkin qushga mengzash mumkin, chunki u o'tgach, shirin tushga, armonga aylanadi. Shunday yashash kerakki, o'tgan umring shirin xotiralarga boy bo'lib qalblaringga muhrlansin. Kishi umrni g'animat bilib, undan oqilona foydalansa, boshiga baxt-omad qo'nadi. Hayotga kelgan odamda albatta qachondir ketish bor, o'lmaslikka chora ham, bahona ham yo'q:

²³ Masnaviy arabcha "ikkilik" ma'nosini bildiradi. Har ikki misrasi alohida qofiyalangan katta hajmli asar. Qofiyalanish tartibi: a-a; b-b; c-c; d-d tarzida.

²⁴ **Содиқ Сайхун.** Бобурнинг болалиги. Шеърлар ва дoston. Тошкент, "Чўлпон" нашр., 1994. 18-30-бетлар (Дostonдаги мисоллар шу манбадан олинганлиги боис кейинги ўринларда китоб бети кавс ичида кўрсатилди).

*Tark etsa-da jisming jon,
Lekin tiriksan ishon.
Shu tolega bo'lgan yor,
Bobolardan faxrim bor.
Bobur bobom suyukdir,
Xizmatlari buyukdir. (18-bet)*

Insonning qilgan ezgu ishlari umrini bezaydi, uni ikkinchi marta yashashga haqli ekaniga sabab bo'ladi, mana shunday ezgu niyatli insonlar doim tirik, ularga tole yor. Shundaylar qatorida Bobur bobosi borligidan lirik qahramon faxrlanmoqda. Uning nomi suyuk, xizmatlari esa buyukligidan faxrlanyapti. Undaylar ruhini shod etish, muqaddas nomlarini yod etish mangulikka qo'yilgan obidadir, haykaldir. Shu bilan birga o'z xalqiga madadkor, yaxshilarga yor bo'lgan Boburga o'z Vatanida joy bo'lmadi, shoh esada uning taqdiriga musofirlik qismati yozib qo'yilgan edi. Bu Bobur uchun og'ir azob edi... Ya'ni shoir aytganidek, *“Oq qog'ozda ming nola, besh asrki havola. O'qib dardin tuyamiz, Qismatiga kuyamiz. Saf-saf tizgan bayt-g'azal, Bir-biridan soz, afzal. Kitoblari so'z qasr, O'qib necha dil asir.” Boburnoma'si meros, Davr aksi ro'yi-rost*”.

Boburning kechirgan og'ir hayoti asrlar o'tsa-da, bizni og'ir iztirobga soladi, befarq qoldirmaydi. Biz shoir qismatiga qalbimizdan achinamiz, lekin Bobur taqdirida, qismatida shu ayriliq, musofirlik yozilgan edi. Biz, Bobur vatandoshlari, uning asarlarini o'qib, zamonaga shukrona aytamiz, shoh va shoirni har lahza yod etaveramiz.

Ikkinchi bob *“Qo'sh ismli shahzoda”* deb nomlangan. Bu bobda mo'g'ul xoni Yunusxon, Umarshayx mirzo, Qutlug' Nigorxon, Eson Davlatbegim (Umarshayx-ning qaynonasi) tilga olinadi. Kampir bilan chol Yunusxon yangi mehmon kutishayotgan bo'ladi:

*Hijriy hisob o'sha kez,
Sakkiz yuz sakson sakkiz.
Muharram oy ayyomi,
Quvonchga lim dil jomi. (19-bet)*

Ular (Eson Davlatbegim va Yunusxon) birinchi o'g'il nabira ko'rishadi. Sevinchlari bir dunyoga aylanadi. Negaki, *“temuriylar bolasi, mo'g'ul sulolasi”* edi bu nabira. Ism qo'ydirish maqsadida Marg'iloniydan iltimos qilishadi:

– *Qaysi ism unga mos?*
Marg'iloniy, iltimos,
Kitob ko'rib ayting siz,
Bolani kim ataymiz?
– *Zahiriddin Muhammad,*
Kular hayotda omad!
Munir xoja qo'ydi nom,
Go'dak tug'ilgan oqshom.
Qariyalarga biroq
Tuyuldi bu qiyinroq.
“Muncha tetik ul qurg'ur,
Yo'lbarsdayin – bu BOBUR!” (19-bet)

Shu tariqa qo'sh ismli shahzoda (Zahiriddin Muhammad va Bobur) dunyoga keldi. Baxtli bobo va buvijonlar Yaratganga niyatga mos nabira berganiga shukrona aytishdan charchasmasdi.

Uchinchi bob *“Orzu”* deb nomlangan. Qancha vaqt o'tyaptiki, Umarshayxning ko'ngli tog'dek ravshan bo'lib ketgan edi. Bobur Mirzo shohona yashar, hamma unga parvona, kun sayin yayrab o'sardi:

To'lib-to'lmay bir yoshga,
Salom berdi quyoshga.
Ikki yuzi qip-qizil,
Qosh egma yoy, qaro nil. (20-bet)

Bobur yoshligidan har narsaga qiziqadigan, chechan va chaqqon bo'lib o'sdi. U oltinu kimxoblarga qiziqmasdi, ilm-hunar esa jonu dili edi, ertak va she'rlar tinglashni kanda qilmadi. Saroyda ko'p turmadi, otda yurishni odat qildi, ko'p joylarni sayr qildi. Axsikent, Andijon yo'llarida bo'lib, turfa ishlar guvohiga

aylandi. Unga jilovbardorning ham keragi yo'q edi, mohir ot minarga aylanib ulgurdi, ko'plab do'stlar orttirdi. U do'stlarini boy-kambag'alga ajratmas, asosiysi yaxshi odam bo'lsa bo'ldi edi, ya'ni *Boy-kambag'al farq qilmas, Yaxshi o'rtoq bo'lsa bas. Kimki nochor – ko'rganga, Ulashardi non, tanga...*

Yosh Boburda xotamtoylik, oddiy kishilarga yaxshilik qilish kabi yuksak insoniy fazilatlar shakllanib boradi. Bir kuni Qo'shqayrag'och degan qishloqqa kelib qoladi, u yerda Boburmirzo keksa cholga duch keldi. Salom-alikdan so'ng shahzoda o'zining yo'lovchiligi, yaxshilarga oshna bo'lish doimiy odati ekanini tushuntirdi. Choldan suv so'radi. Cholning polizi bo'lib, bodring ekkan edi va shahzodani polizga taklif etdi va soddalik bilan dedi:

*“Bodringga suv kelmas teng,
Chanqoq bosar, uzib yeng!
Kiravering polizga,
Bemaloldir bu sizga”*

Bobur dehqonbobo himmatidan lol bo'lib qoldi, ilk bor o'zi polizdan bodringni uzib yedi. Cholga qulluq qilgach, uch-to'rt tangani cho'ntagiga solib qo'ydi, bundan hijolatga tushgan dehqonbobo dedi:

*“Rizq-ro'z koni uy-dalam,
Poliz bozormas, bolam.
Yozolmadim dasturxon,
Bechoramiz yo'qdir non.
Shukur yetdik, pishdi tut,
Ilik qurishlar unut.
Yemasak-da shirin osh,
Nolimaymiz keksa-yosh.
Qaynab qolar qozonlar,
Hosil yig'ilgan onlar”. (21-bet)*

Bu bobda ijodkor hikmatomuz voqealarni o'ziga xos tarzda bayon qila olgan, ya'ni o'tmish bilan bugun, milliylik bilan zamonaviylik, oddiy (bu yerda och odamlarga muruvvat ko'rsatish nazarda tutilgan) odamlar bilan to'q xonadon

solishtirilgan. Ota-bobolarimizning hadis va hikmatli so'zlardan kelib chiqib aytgan *“shukur qilib tut pishig'iga yetib olsak, qiyinchiliklar unutiladi”*, *“hosil yig'ilgach, qozonlar ham qaynab qoladi”*, *“ochlar holidan xabardor bo'ling”* kabi dono fikrlari *irsoli masal* tarzida keltirilganki, bu ham ziyrak kitobxonni befarq qoldirmaydi.

Boburmirzo cholga minnatdorchilik bildirib uyga yo'l olarkan, xayollari bir joyda emas edi, sababini o'rtoqlariga aytmadi ham. Boburjon churq etmay yo'la davom etdi, buning sababini o'zi ham bilmasdi. Uning fikrini yaqinda bo'ladigan to'y chulg'ab olgandi, shularni o'ylarkan, xayolan dedi:

*“Qaniydi dosh qozonda,
Palov damlab azonda.
Chaqirilsa barcha och,
Buni ko'rmoq zo'r quvonch!”
Aytib orzu o'yini,
Tezlattirdi to'yin (o'sha joyda).*

Chindan ham, Bobur xayolini ochlar ahvolidan xabardor bo'lishdek sharaflilik va ezgu ish egallab olgan edi.

To'rtinchi bob to'y deb nomlangan. Bu bobda Umarshayx Mirzo saroyida bo'layotgan to'yga taraddud ishlari, qo'rg'on ta'miri tafsilotlari va shoh farmoni bayoni bilan boshlanadi. Jarchilar otga minib, shoh farmonini xalqqa e'lon qilishadi va yetti yoshdan yetmish yoshgacha bo'lgan xalq ommasini katta oshga, ya'ni besh yoshli Boburjonning Axsikentda bo'layotgan to'yiga taklif etadilar:

*Odamlaru odamlar,
Bog'da bitgan bodomlar.
Eshitmadim demanglar,
Keyin pushmon yemanglar.
Podshoh berar elga osh,
Boravering keksa-yosh! (22-bet)*

Ijodkor xalqona ohanglarni topib ayta olganki, bu asar jozibasini, xalqqa bir muncha yaqinligini oshirishga xizmat qilgan, deya olamiz. Erta tongdan sozandayu xonandalar, hofizlar tomonidan maromiga yetkazib ijro etilayotgan “Navo” va

“Ushshoqlar” to’yga yana ham ko’tirinkilik baxsh etardi. Uning ovozi olamni tutib ketdi, xalq to’y tomon oqib kela boshladi, ularning oxiri ko’rinmasdi. Qozon to’la sho’rva deysizmi, osh, sumalak, halim, qo’yingki, mazasi tillarni yoradigan shirinliklar, qovun-tarvuzlar – ne’matga kon dasturxon mehmonlarga muntazir edi:

*Daryo misol odamlar,
Oqib keldi bu damlar.
Sig’may qo’rg’on keldi tor,
Xalq edi nonga zor...*

Odamlar ko’payib, joy yetmay qolgach, Sayhun (Sirdaryoning o’sha paytdagi nomi) qirg’og’iga ham joy qilindi. Saxovatpesha odamlaridan, yaqinlaridan Tanti Xotamtoyga xos fazilatni ko’rgach, Boburjonning ko’ngli tog’ kabi ko’tarilib, orzu-armonlari ushalganidan cheksiz shod edi. Odamlar ham to’y bahona g’amlar unutilib, xursandchilik sabab to’ybolani qutlashar edi. Xursandchilik uzoq vaqt davom etdi. Bir hafta davom etgan to’y tantanasi Andijonda davom etadigan bo’ldi. Zero, shoir aytganidek, *Hafta o’tgach Andijon Sari chorlashdi mehmon. Qizib shodlik ayyomi, unda kechdi davomi...*

To’y tantanalari, to’kin-sochinlik va xursandchilik kitobxon qalbiga ham tantanavorlik baxsh etgan. Buni ijodkor maromiga yetkazib tasvirlay olgan.

Beshinchi bob *Samarqandga sayohat* deb nomlangan. Bu bobda Umarshayx Mirzoning o’g’li Boburjon bilan Samarqandga borishi tasvirlangan. Mehribon onasi ham o’g’lining afsonalar shahri bo’lmish shaharga borishini istaydi, ilm olib, kelajakda bobolari kabi mashhur kishilardan bo’lib yetishish tarafdori. Ota xotin fikrini tinglab, uni ma’qullaydi va o’g’liga deydi:

*– Xabar kelmish, Boburjon,
Samarqand chorlar mehmon.
Qilib sayru sayohat,
Tuyasiz zavqu rohat!
– Qanday shahar Samarqand?
So’rar Boburjon xursand.
– Ta’rifga tillar lol,*

*Olam husnidagi xol.
Men tug'ilgan go'shadir,
Eshitsam dil jo'shadir.
Ona shahrim – Samarqand,
Erurman unga farzand... (23-bet)*

Otasi yosh Boburga bobolari Amir Temur, Abu Said va ko'plab avlodlari, ularning ibratli faoliyatlari haqida hikoya qiladi. Ularni ajoyib xushxabar kutayotgani, olam-olam taassurotlarga boy safarga hozirlik ko'rmoqligini ta'kidlaydi. Otga minib ota-bola Samarqandga yo'l olishadi va shirin xayollar og'ushida azim shaharga kirib borishadi. Ota qadrdonlari ularga peshvoz chiqishadi. Barcha qarindoshlar yosh Boburga ehtirom ko'rsatishadi, ayni paytda yosh Boburning xulqi-odobi ularga yoqib tushadi. Shahzodaning istagi tarixiy shaharni ziyorat qilish edi. Otasi bilan bobosi yotgan maqbaralarga bordi, Amir Temur ruhini shod qilish maqsadida tilovatlar qilishdi, duoga qo'l ochishdi, ya'ni *Ta'zim aylab boboga, Ochishdi qo'l duoga. O'tishdi so'ng Registon. Hayrat uyg'otdi maydon. Ulug'bekdan yodgordir, "Ilm olmoq darkordir". Bir yonda go'zal Sherdor, Tiklagan mohir me'mor.* Boburga ko'hna Samarqand yodgorliklari juda-juda yoqib tushdi, ko'plab kitoblar xarid qildi. Uning ko'nglida Axsikent va Andijonda ham jahonga mashhur imoratlar qurish orzusi paydo bo'ldi. Asarda yosh Boburning ilm-ma'rifatga qiziqishi, kelajakda ezgu ishlar bilan shuhrat topishga erishishi o'ta ta'sirli va ishonarli tarzda ifoda etilgan.

Oltinchi bob *Ur, Bobur!* deb nomlangan. Bu bobda yosh bo'lishiga qaramay, Boburda yurtiga, odamlariga bo'lgan sadoqati, matonati ko'rsatilgan. Shahzodaning Andijonga mehri baland. Bobur Vatanga bo'lgan muhabbatni hamma narsadan ustun biladi, yurtiga sadoqat bilan xizmat qiladi. Biroq:

*To'qqiz og'och yiroqda,
Sayhun yoni – qirg'oqda.
Axsikent – poytaxt shahar,
Xayolda shomu sahar.
Qo'rg'onda zor-intizor,*

Umarshayx, Qutlug' Nigor.

Bobur Andijon va Axsikentni yaxshi ko'radi, bozorlarini tartibga soladi. Kambag'al, nochor xalqqa tangalar sochadi, nonlar beradi, turli sovg'alar hadya etadi. Yoshlikdan saxiylikni o'ziga odat qilib oladi, mehr-muruvvatli bo'ladi. Mehrdan minoralar quradi, chinorlar ekadi. Haq va adolatni qanchalik himoya qilsa, suysa, adovatni, kinni shunchalik yomon ko'radi, yo'qotish yo'llarini izlaydi.

Shahzoda Sayhun bo'yi atrofida joylashgan Toshqo'rg'on dovoniga (hozirgi To'raqo'rg'on tumanida joylashgan Bobur nomli jamoa xo'jaligidagi Yakkayigit o'rnida bo'lgan ko'hna qo'rg'on nomi) kelsa, gavjum odamlarga yo'liqadi. U yerda kambag'al yigit Odil nay chalib o'tiradi. Nay sehriga turli toifadagi odamlar to'planadi, ularni o'ziga rom qiladi. Birdan kimdir kelib, Odilga dag'dag'a qiladi va bu yerdan ketishini talab qiladi. Odil esa unga e'tibor qilmaydi. Shunda haligi odam Odilning boshiga qamchi bilan uradi, boshi yorilib, qon oqa boshlaydi. Shunda Bobur naychining oldiga borib, sababini so'raydi:

– Nega bo'yalding qonga?

– Yoqmadim bir yomonga!

– Kim ekan o'sha yomon?

– Anovi Qo'zi polvon.

Polvon keldi qad bukib,

O'zin oqlar tiz cho'kib:

– Nay chalma, deb buyurdim,

Chalavergach ko'p urdim.

– Soz chalmoq emas gunoh,

Uzr so'ra hoziroq.

Bobur begunoh odamni urmoq katta gunoh ekanini aytadi va xalq oldida naychini urgan qamchisi bilan o'zini ura boshlaydi. Polvon azobda qoladi:

Shahzoda zo'r g'azabda,

Polvon yotar azobda.

Xalqdan rag'bat yog'ilur

– Yasha, yasha, ur, Bobur!

*Urrib u huzur oldi,
Qo'llari charchab toldi.*

Shundan so'ng beklardan biri polvonga rahmi kelib uning yonini oladi, el oldida sharmanda bo'lgan bundan so'ng yomon ishlar qilmaslikka, nohaq birovni xafa qilmaslikka so'z beradi. Adolatni istagan Boburga hamma ofarinlar aytadi, kaltaklangan naychini xalq oldida ot va to'n bilan siylaydi, ko'nglini xushlaydi. Shu tariqa Bobur xalq o'rtasida adolatli shahzoda sifatida namoyon bo'ladi, ularning hurmat-e'tibori oshadi

Yettinchi bob *Alvido, bolalik!* Bu bob tabiat tasviri – peyzaj bilan boshlanadi. Bosh qahramonimiz ko'p e'tiborini kitob mutolaasiga qaratgan, uni so'z sehri qiziqtirib qolgan. Ko'shkda – ayvonda kitob o'qish bilan mashg'ul. Boburjon Alisher Navoiy g'azallarini ko'p bor o'qidi, undan sehlendi. O'zining ham ilhomi toshib g'azallar yozishga kirishdi. Chindan-da, *Ilhomi qaynab toshar, Yozgan chog' zavqi oshar. Ohangdor so'zlar tizar, Daftar yuzini bezar. Serma'no va muxtasar, yarata boshlar asar.* O'zi bilmagan holda she'rdan she'rga o'sib borardi. Qilichbozlik va boshqa bir qator hunarlarni o'rganishga ham vaqt topardi.

*Kechar edi chorbog'da,
Jar quladu u yog'da.
O'ttiz to'qqiz yoshida,
Mirzo sezmay xavf-xatar,
Uchirardi u kaptar
Yuz berdi-ku halokat...*

Shu payt yer larzaga kelib, falokat ro'y beradi. ramazon oyining beshinchi kuni Axsikentdan Andijonga sovuq xabar tarqaladi, ya'ni as alga zahar tomadi. Nahotki, Boburning bolaligi, shirin hayoti tezda barbod bo'lsa... Boburjon ham kutilmagan xabardan toshday qotib qoldi. Onasi ham yig'idan to'xtamasdi. Beklar ham bus hum xabardan chopib qolishdi. *Andijonda bosh voris, Axsikentda yosh voris. Ikkisi ham boladir. Taxt kimga qoladir?!*

Bobur nima bo'layotganini bilolmas va yig'idan to'xtamasdi. U otga minib, beklardan insof, diyonat kutdi. Bobur, uning yaqinlari fitna va qora niyatlar, toj-taxt

mojarosi alanagalana boshlagan bir paytda ko'z yoshlari bilan O'zgan tomon yo'l olishdi. Shunda ularning ortidan:

“To'xtanglar, hoy to'xtanglar!

Ortdan qichqiriq yangrar.

Menman Xoja Muhammad,

Boburjon, qayting omad!

Hozir xalq Sizni yoqlar,

Shahzodani so'roqlar.

Taxt berilmas birovga,

Ko'pchilik qarshi yovga...”

Bu xushxabar Bobur va uning yaqinlariga quvonch bag'ishladi, ular arkka tomon yo'l soldilar. Mehnatkash xalq Boburga taxtning haqiqiy vorisi ekanini va hech ham bo'sh kelmasligini bildirishdi. Xalqdagi bu ehtirom va rag'bat Boburdagi ishinchni yanada oshirdi. Yovni yengib taxtga chiqdi. Toju taxtga davogar bo'lgan ig'vogar va g'alamislar jazolandi, haq yo'lida qaror topdi. Qisqasi, adovat buluti tarqab, adolat oftobi chiqdi. Bobur mustahkam tinchlik o'rnatishga erishdi. Yurtda tinchlik, osoyishtalik o'rnatildi. Boburjon o'n ikki yoshida taxtga o'tirdi, yurt g'amida bosh qotiradigan bo'ldi. O'zi aytmoqchi:

U o'n ikki yoshida,

Ming savdolar boshida.

Xayrlashdi bolalik,

Quvnoqlik, shalolalik.

O, qandayin beomon,

Alg'ov-dalg'ovli zamon.

Sakkizinchi bob *Xotima.* Bu qismda Boburning ayanchli qismati, orzulari va uning ifodasi o'laroq Mustaqil O'zbekistonimizning bugungi farahbaxsh kunlari taqqoslanadi, solishtiriladi:

Bobur bobo – zo'r bobo,

Tolemizni ko'r bobo!

Mustaqil O'zbekiston,

O'zbekim tanir jahon.

Temuriylar aslimiz,

Ulug'larning naslimiz.

Lekin bugun ko'nglimizning bir cheti g'ash, bir cheti armon. U ham bo'lsa – yuraklarni o'rtovchi armon. Mirzo Bobur Vatanidan yiroqda, bir umrga firoqda o'zga yurtni vatan aylab yotibdi. Andijonu Namangan (Axsikent) xalqi o'z vatandoshini sog'inyapti, qo'msayapti. O'z yurtiga sig'magan shoir izini izlab, yurt kezmoqda, bo'zlamogda. Xayriyatki, qilgan ziyoratlaridan taskin, hayrat topib, u yaratgan bog'-rog'larga, chinorlaru minorlarga tilsiz hikoya qilishmoqda. Hammani birlashtirib, Temurga o'xshash nasib qilmaganidan, tug'ilgan yurt tor,umidlari qor bo'lganidan o'z yurtin tashlab Hind sori yuzlanganidan fig'on chekishmoqda. Shoir bu so'zlarni aytganida to'la haq edi:

Qush kabi solding fig'on,

Shohanshoh Hindu Afg'on.

Bobur bobo – zo'r bobo,

Toleingni ko'r bobo!

Bobur nomi tillarda,

Bobur nomi dillarda...

Andijonda Boburga qo'yilgan haykal, ko'chalar, uy muzeyi tilga olinib, uning muqaddas nomi va ezgu ishlari bir umr saqlanajagi e'tirof etilgan holda asarga nuqta qo'yilyapti. Biz mana shunday ulug' kunlarda Vatandoshimiz Zahiriddin Muhammad Boburni yaxshi xislatlari bilan yod etaveramiz! Biz yuqorida ko'proq asar mazmunini yoritishga harakat qildik. Sodiq Sayhun Boburning yoshligi o'tgan go'sha farzandi. Ko'p tarixiy voqealarni o'quvchi yoshiga mo'ljallab yorita olgan. Bunda u masnaviy usulidan foydalangan, qofiyalanish tartibi ham a-a, b-b, c-c,... She'r boshidan oxirigacha yetti bo'g'inda yozilgan, turoqlanishi ham 4Q3 tarzida tartiblangan. Unda badiiy tasvir vositalaridan, o'xshatish, sifatlash, metafora, metonimiya, inversiya, irsoli masal, iyhom kabi she'riy san'atlardan unumli foydalanilgan, bu uning ta'sirchanligini va badiiyligini oshirishga xizmat qilgan. Yana shuni ham aytib o'tish kerakki, ayrim hollarda bir oz g'alizliklar, qofiyaning

buzilishi, paronimik xatolarga ham yo'l qo'yilgan. Biz bularga ko'p ham to'xtalmadik, chunki biz asar tahliliga ko'proq e'tibor berdik.

Aytish mumkinki, yozuvchi asar yozishda bolaning yosh xususiyatini hisobga olgan va shundan kelib chiqqan holda fikr yuritgan. Qahramonlar portreti, holati chuqur yoritilmagan va buni yozuvchi asosiy maqsad qilib olmagan ham. Lekin bu juz'iy kamchiliklar she'rning badiiy qimmatiga ta'sir qilmagan.

Sodiq Sayhunning o'ziga xos qirralaridan biri shuki, shoir nasrda ham, publitsistikada birday ijod qila oladi. Qaysi turda yozmasin, uning o'ziga xos asosiy xususiyatlarini, yo'llarini bayon qilish kuchli. Yana ayta olamizki, lirik kayfiyatni, tuyg'ularni boshqa turda yozgan asarlari ruhiga singdira oladi – sintezlay oladi.

“Vatan nimadan boshlanadi? Uning ibtidosi va intihosi bormi? Bor bo'lsa, uni aniqlash mezonlari qanday? Biz o'zimizni ushbu savollarga tayyordek sezamiz. Biroq bu oddiy savollarga javob berish juda mushkul va murakkab.

Umrni oqar suvga qiyoslaydilar. Bu gapda ham mantiq kuchli, zero, inson tug'ilaveradi, kamolga yetaveradi, nihoyat, bir kuni kelib yorug' olamni tark etaveradi. Ammo insoniyat, uning tarixi oqar daryo silsilasiga monand ravishda doimo mangudir. Uning manguligi, mavjudligi esa tarixida aks etadi. Shu asnoda Vatan va Insoniyat tushunchalarini qalban, vijdonan anglab yetish oayti keldi. Ayniqsa, O'zbekistonning mustaqillikka erishuvi, uni mustahkamlash jarayonlari, jamiyat a'zolarida paydo bo'lgan ijtimoiy-siyosiy faollik – bularning barchasi biz yuqorida zikr etgan tushunchalarni teran mushohada etishga undamoqda”²⁵.

“Ibratli umr haqida qissa” (professor A. Mavrulov) sifatida baholangan “Abdulla polvon” nomli tarixiy qissasi bu fikrlarimizni tasdiqlay oladi. Talantli nosir va publitsist Sodiq Sayhun bu tarixiy asarida Namangan qishloqlari, zahmatkash xalqi va ularning o'ziga xos psixologik (ya'ni ruhiy) jihatlarini ochib bera olganligi bilan ham ahamiyatlidir. Bu asardagi voqealar taxminan 365 yillik voqealarni o'z ichiga olgan. Shu jihatdan olib qaraganda, mazkur asarni O'zbekiston, o'zbek xalqi tarixining bir bo'lagi, bir qismi sifatida baholasa arziydi. Yangicha nigoh, yangicha tahlil bilan yo'g'rilgan tarixiy qissada xalqimizning asl

²⁵ **Содиқ Сайхун.** Абдулла полвон. Ўн тўрт хикояли тарихий қисса. Тошкент “Ўзбекистон”, 1997. 114 бет. Юкоридаги фикрлар, сўзбоши муаллифи профессор А.Маврулов. 3-4-бетлар.

ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy ahvoli, uning ma'naviy-ruhiy holati ko'z oldimizda yorqin gavdalanadi. Bunday hol, afsuski, sobiq davrda buzib ko'rsatildi, yolg'on-yashiriq so'zlar va qahramonlar sha'niga tuhmat-u bo'htonlar haqiqatni qora parda ortiga yashirdi. Yozuvchining jasorati bilan dunyo yuzini ko'rgan asarda biz haqni, haqiqatni aynicha ko'rish, his qilish baxtiga muyassar bo'ldik. "Inqilob", yer-suv islohoti, qishloq xo'jaligini kollektivlashtirish jarayonini yangicha o'rganish asosida biz o'sha davr ruhini ham yangicha anglash imkoniga ega bo'lamiz. Nazarimizda, muallif "bosmachilar" – istiqloqlar harakatini kichik bir hudud, chegara misolida ishonarli tarzda ochib berishga erishgan. Bu esa ilgari "qizil imperiya" siyosiy buyurtmasi asosida yozilgan asarlar orqali paydo bo'lgan tasavvurlarimizni keskin tarzda o'zgartirib yuboradi. Tarixiy davrga yangicha nigoh bilanqaragan adib, hayotiy voqealarni bo'yamasdan, qanday bo'lsa shundayligicha ifodalashga intilgan. Murakkab, ziddiyatli davr kechmishlarini asar qahramonlari qismati, ularning orzu-o'ylari, xatti-harakatlari zaminida tasvirlaydi. Yangicha tahlil beixtiyor kitobxonda yangicha tasavvur uyg'otadi.

Tarix – bu shaxslar, konkret kishilar faoliyatidir, shu ma'noda asarda Abdulla polvon obrazining yaratilishi, uning rivojlanish evolyutsiyasi aniq dalillar orqali ko'rsatib berilishi juda ishonarli va ta'sirli chiqqan. Qahramon timsolida biz haqiqiy o'zbekona axloq-odob, ruhiyat va tarbiyani ko'ramiz. Bu narsa ta'bir joiz bo'lsa, jamiyat a'zolarini tarbiyalashning muhim vositalaridan biridir.

Asar go'yo bir shaxs to'g'risida yozilganidek, lekin qissa mutolaa qilinsa, uni namanganlik chavandozlarning, polvonlarning butun bir avlodi namoyon bo'ladi. Qoratoy polvon, Damin polvon, Otaxon polvon, Lutfi polvon, Hamroqul polvon singari o'z davrining og'ir yukiniyelkasida ko'tara olgan kishilar obrazlari uchraydi. Ular Abdulla polvondek kuchli texnikalar, nasoslar yo'q paytlarida butun kuch-quvvatini suvni jilovlashga sarf etgan miroblar, fidoyi shaxslardir. Ayni mahalda milliy qadriyatlardanbiri hisoblanmish uloqda chavandozlarning dovruqlilari bo'lishgan. Asarda voqealar Farg'ona vodiysida kechadi. Uloq, ya'ni ko'pkari maydonlari dam O'shga, dam Marg'ilonga, dam Qo'qonga ko'chadi

3.2. Sodiq Sayhun she'riyatida badiiy tasvir vositalarining qo'llanishi

Bizga shu narsa yaxshi ma'lumki, hayotda har bir inson o'zigagina xos bo'lgan fazilatlari bilan ajralib turadi. Shu jihatdan olganda Sodiq Sayhun adabiyotning nasr, nazm hamda jurnalistikaning barcha yo'nalishlarida birday qalam tebrata oladigan ijodkor sifatida ko'psonli ijod ahliga tanilib ulgurgan. Uning bu serqirra xususiyati ko'plab ijodkorlarga ham nasib qilavermaydi.

Ajoyib shoir va publitsist Sodiq Sayhun yozgan she'rlari, nasriy asarlari hamda publitsistik maqolalari ham o'zining g'oyasi, mazmuni va ta'sirchanligi bilan barchaga manzur bo'lib kelmoqda.

Sodiq Sayhun To'raqo'rg'on tumani farzandi, uning yoshlik yillari Sirdaryo bo'yidagi Axsikent atrofida kechdi. Uning yoshlik yillari, o'quvchilik davri va shodligu g'amli kunlari ana shu daha bilan hamnafas bo'lib ketgan.

Ana o'sha davrlarda Sodiq Sayhun qalbida shoirona tuyg'ular paydo bo'lib, she'riyat bo'stoniga kirib keladi va bu bo'stonda Mashrab, Nodim, Xilvatiy, So'fizoda singari namanganlik mumtoz shoirlar ruhidan madad olib, she'rlar bita boshlaydi va tez orada o'z muxlislarini topib tanila boradi. Uning she'rlari viloyat gazetasida, qolaversa, "Sharq yulduzi", "Yoshlik", "Yosh kuch", "Guliston", "Turkiston" singari respublikamizning nomdor jurnal va gazetalarda hamda boshqa qator ommaviy axborot nashrlarida e'lon qilina boshlaydi.

Tinib-tinchimas ijodkor Sodiq Sayhun o'zining mehnati, qobiliyati va izlanishlari evaziga iqtidorli shoirga aylanib bordi va bir nechta she'riy to'plamlari nashr etildi.

U mumtoz adabiyot va hozirgi zamon she'riyatini tashnalik bilan o'rgandi, Ma'naviyat va ma'rifatga oid ko'plab risolalarni ko'zdan kechirdi. Bularning hosilasi o'laroq, unda qizg'in ijodiy va ijtimoiy faoliyat boshlandi. Ko'p o'tmay el nazariga tushdi.

Sodiq Sayhun o'z qalamini she'riyatdan tashqari, zamonaviy nasr, publitsistika va ilmiy-ma'rifiy sohalarda ham sinab ko'radi. Shifokorlar hayotidan lavhalar, tarixiy obidalar, farzandlar tarbiyasiga doir matbuot orqali hujjatli va badiiy asarlari bilan muntazam chiqishlari fikrimizning dalilidir. Unda tezkorlik, yoritilayotgan

mavzuga tahliliy yondashish o'ta kuchli. Bu holat muallifning "To'raqo'rg'onning to'ng'ich korxonasi", "To'raqo'rg'onnomasi", "Chorak asr", "Turkiston taraqqiyotidan", "Avlodlar yodnomasi" kabi badiiy-publitsistik kitoblarida yorqin aks etgan.

Ma'lumki, yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalash, pedagogikaning, qolaversa, barcha fanlarning dolzarb vazifasidir. Buni yaxshi tushungan ijodkor hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida yuz berayotgan qusurlar, nomutanosibliklar haqida "Namangan haqiqati", "Namangan sadosi", "Shifokor va hayot", "Mahorat maktabi", "Bolalar dunyosi", "Ta'lim va tafakkur" kabi gazeta va jurnallar orqali ko'plab chiqishlar qilib, o'z munosabatini bildirmoqda.

Sodiq Sayhunning 1994-yilda Toshkentda G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotida chop etilgan "Sevgi sehri" nomli to'plami boshqa kitoblaridan ajralib turadi, zukko kitobxonni befarq qoldirmaydi. O'zining chin ma'nodagi shoirligini namoyon qila olgan to'plam sifatida baholanishga arziydigan bu kitobdan ellikka yaqin she'rlar va g'azallar joy olgan. To'plamni varaqlar ekanmiz, asl she'riyat "shunchaki chechanlik emas, shunchaki chiroyli tashbehlaru, marjon misol tizilgan sadafdek so'zlar emas"(Ozod Sharafiddinov)ligiga yana bir marta guvoh bo'lamiz. Kitob "Istiqlol" nomli she'r bilan ochiladi. Shoir o'z tuyg'ularini ta'sirchan ifodalar zahirida she'r qatiga joylaganki, buni hayajonlanmasdan o'qib bo'lmaydi. She'r quyidagi misralar bilan boshlanadi:

Maqto'vlar bitmoqqa tutmadim qalam,

Madhiyabozlikdan ne foyda asli.

Yurtimni shusiz ham taniydi olam,

Endi ko'krak kerar Temurning nasli.

Bugungi farahbaxsh zamonaga hamohang she'rda o'z yurtini, kimlarning avlodidan ekanini eslatib qo'ygandek bo'lyapti. O'tmishni eslarkan, qadim Turon xalqi ham hech kimdan kam bo'lmaganini, jahonga mashhur olimu allomalar yurti ekanidan faxrlanadi. Asriy armonlarimiz ushalgan kunlarda balandparvoz so'zlar bilan emas, balki o'zimizning halol mehnatimiz bilan, nelarga qodirligimizni ko'rsatish payti kelganini yashirib o'tirmaydi:

*Muhabbatning ko'pdir so'zsiz izhori,
Ko'hna Turonimga, ey voris xalqim.
Bilakda ko'rinsin yurakda bori,
Istiqbolga mas'ul imonli har kim.*

O'tmish tarixda qoldi. Bugun amalga oshirilajak har bir ezgu ishlarimiz ertangi kunimiz uchun, nurafshon kelajagimiz uchun poydevor bo'lisiga ishonib yashasak, ahillik bilan, birdamlik bilan yurt ravnaqi uchun kurashsak, O'zbekistonimiz “kelajagu buyuk davlat” (Islom Karimov) bo'ladi. Shoir aytmoqchi:

*Bu Vatan el-ulus mehriga tashna,
Bu vatan o'zbekka onadek suyuk.
Bobolarim ko'rgan tuprog'im yashna,
Mehri buyuk xalqning Vatani buyuk!*

“Hur O'zbekiston” she'rida shoir shunday yozadi:

*Yurakni globus aylasam ham kam,
Unda jo mustaqil – hur O'zbekiston.
G'amdanmas sevinchdan ko'zlarimda nam,
Bobolar ruhi shod, biz-la yonma-yon!*

Chindan-da, O'zbekiston bamisli buyuk tog', ulkan tog'. U tomon qancha oshiqsang, ulkanligi shunchalik namoyon bo'laveradi. Shoir aytganidek:

*O, aziz Vatanim, o'xshaysan toqqa,
Qancha yaqin balsam ulkansan shuncha.
Quloch kersam, qani, sig'sang quchoqqa,
O'pib peshonangdan suygun o'lguncha!*

Qadibaland asrimizning muhim voqealari jasoratli shoir va publitsist Sodiq Sayhun e'tiboridan chetda qolmaydi. Ayniqsa, ona yurtimiz – O'zbekistonning milliy istiqloli yuraklarda otgan tong! Istiqlol - hayotbaxsh nasim, qotib qolgan tafakkurni davolovchi darmon:

*Istiqlol – millatim asriy armoni,
Qanday soz o'z uying – o'lan to'shaging.
Istiqlol horigan yurtim darmoni,*

Ko'zing qarosiga joylab yashagin.

Vatan kelajagiga ishongan farzand unga sadoqatli, fidoyi. U ona O'zbekistonga umid ko'zi bilan nigoh tashlaydi. Chindan ham, Vatan, el manfaati uchun qayg'urish - shoir she'rlaridagi odatiy hol. Bu - yuzaki chaqiriq yoki shunchaki misralar shodasini tizish emas.

She'rlarida o'zbekona toza ruh, xalq og'zaki ijodiga xos o'ynoqi va yengil ko'tarinkilik aks etib turadi. Ba'zan esa Mashrab yoki Boburday, yoki Usmon Nosirday dardlanib ham yozadi. Farahli kunlardagi she'rlarida esa, quvnoq kayfiyat, bahoriy nozik his-tuyg'ular kamalakday jilolanib turadi. "Diyorim husniga to'ymam" g'azaliga e'tibor beraylik:

Diyorim husniga to'ymam

Nigoh tashlab bahor, yoz ham,

Tilimdan madhini qo'ymam

Qo'limda sayragay soz ham.

Shoir o'zini Vatanisiz ayro tasavvur qilomaydi. Axir aytadilar-ku "*elidan ayrilgan o'lguncha yig'lar*" deb. Elidan bu Vatanidan ma'nosida kelganini anglash qiyin emas:

Muhabbat qudrati shulki –

Vatan qalbingga aylansa,

Yiroq tushsa, sog'inchidan

Egilgaydur bo'yi g'oz ham.

Hazrat Navoiy:

"Na'fing agar xalqqa beshak turur,

Bilki, bu naf izingga ko'prak durur",

degan edilar. Bobomizning bu buyuk hikmatlari Sodiq Sayhun hayoti va ijodiga ham to'la mos keladi. Zero, uning yuzlab, minglab muxlislari e'tirofi, davlatimizning hurmat-e'tibori buni tasdiqlab turibdi. Bejiz eslayotganimiz yo'q: 2000-yili O'zbekiston Prezidenti Farmoniga binoa shoir "Shuhrat" medali bilan taqdirlandi.

Sodiq Sayhun nozikta'b shoir. Vatan sog'inchi, ruhiyat pokligi va boqiy muhabbat haqidagi rang-barang she'rlari bilan she'riyat muxlislariga tanish. Uning samimiylik, sadoqat va mehr-oqibat tuyg'ulariga yo'g'rilgan she'rlari bilan yuzmayuz kelgan o'quvchi inson ruhiyatining necha bir qabatlariga ko'z tashlaydi, nazar soladi. Muhabbatni vasf etuvchi bir o'ynoqi g'azaliga e'tibor berib ko'raylik:

Ko'ngilda qo'zg'olur tug'yon
Saodatxon qiyo boqsa,
Erib orom topar bu jon
Saodatxon qiyo boqsa.
Ajab shirin, ajab lobar
Pariro'y munchalar zebo,
Munavvaddur yeru osmon
Saodatxon qiyo boqsa.

G'azalni o'qir ekanmiz, xalqimizning sevimli shoiri Erkin Vohidovning bir o'ynoqi g'azali yodga tushadi. Bu "Gulchehralar" radifli g'azalidir. Sodiq Sayhun ham o'z kuchini aruzda sinab, ko'plab g'azallar ijod qilib kelyapti. "Saodatxon qiyo boqsa" radifli g'azali aruzning ramal bahrida (ya'ni ramali musammani solim – foilotun, foilotun, foilotun, foilotun ko'rinishida) yozilgan. Oshiqona ruhdagi bu g'azal qo'shiqni ham eslatib yuboradi, iyhom, tajohuli orif, ishtiyoq, metafora, tazod san'atlariga boyligi bilan shoir muvaffaqiyatini ta'minlay olgan. Shoir Alisher Navoiy, Hofiz Xorazmiy Bobur g'azallarini ham ko'p mutolaa qiladi. Shu bois, o'z g'azallarida ularga tatabbu'lar yozadi, tamsillar va irsoli masallar qo'llaydiki, bular beixtiyor ustozlarini eslatadi. "Keldilar", "Ishqqa ta'zim bajo qilg'il", "Shiorim bor mening", "Siz bor uchun", "Vatan", "Visol oshiqning toj vaqti", "Kutganmisan?", "Bildingmi, bilmadingmu?", "Yolg'iz" kabi g'azallari ham mahorat bilan yozilgan. Shoirning "Bildingmu, bilmadingmu?" g'azali matla'siga e'tibor qarataylik:

Bog'ingni kezganimni
Bildingmu, bilmadingmu?
Gullar o'tqazganimni
Bildingmu, bilmadingmu?

Hazil-mutoyibaga boy bo'lgan bu g'azal tajohul ul-orif usulida yozilgan. "Tajohul ul-orif arabcha so'zdan olingan bo'lib, biluvchining bilmagan bo'lib ko'rinishi, o'zini bilmaslikka solishi – mumtoz adabiyotdagi she'riy san'at²⁶, shoirning aslida bilgan narsasini bilmagandek qilib ko'rsatishi, bunda shoirning asl muddaosi biror narsaning asl holatini bilmagandek, uni boshqa biror narsaga o'xshatish, yo madh etish, yo hazil qilish bo'ladi".

Tong chog'i andalibning

Navolari yoqarmish,

Yor shuni sezganimni

Bildingmu, bilmadingmu?

Oshiq ma'shuqasi ko'chasidan o'tganda, baland devoir uni xunob qiladi. Qarayapti, bo'y cho'zyapti, lekin iloj yo'q, bu qiynalganidan mahbubasi xabardormi? Shundan uning xunobi oshgan:

Vasling qo'msab ko'changdan

O'tsam baland devoring,

Qarab bo'y cho'zganimni

Bildingmu, bilmadingmu?

Oshiq kulgili holatda tasvirlangan, ya'ni zamonaviylik qo'shilib ketgan, iyhom qilyaptiki, go'yoki ma'shuqasining boshqa yoqtirgani bormikin?

Tengqurlar to'yga aytsa,

Bayram menga o'shal kun,

Pinhon ko'z suzganimni

Bildingmu, bilmadingmu?

Kezi kelganda shuni ham aytib o'tish kerakki, ba'zi g'azallar aruz qoidasidan bir oz chalg'iganday ko'rinadi. Biz buni shoir xatosi deyishdan yiroqmiz, kitob ko'chirishda yo'l qo'yilgan juz'iy xato sifatida qarash, bizningcha, to'g'ri bo'lar. Lekin ishonch bilan aytish joizki, shoirning aruzdagi, g'azalchilikdagi sa'y-harakatlari, ijod mahsullari e'tirof etilsa, yana ham chuqurroq o'rganilsa, tahlil qilinsa arziydi.

²⁶ Bu haqda qarang: Д. Курунов ва бошқалар. Адабиётшунослик луғати. Тошкент, 2013. 304-305-бетлар; Ё.Исҳоқов. Сўз санъати сўзлиги. Тошкент, 2006. 64-бет.

X U L O S A

Sodiq Sayhun she'riyatining tarbiyaviy ahamiyati haqida ham bir qancha iliq fikrlarni aytish mumkin. Sodiq Sayhun she'riyati, zamonaviy va tarixiy mavzudagi nasriy asarlari, esse va publitsistik asarlari bugungi o'zbek adabiyotida alohida o'ziga xos o'ringa ega. Shoir she'riyati haq va haqiqatni madh etgan, qalbi doim daryoday sermavj, nasru nazmi seravj, serma'no. Ota-ona oldida, Vatan oldida o'z burchini, vazifasini nozik tushunadidan, kerak bo'lsa hamma narsaga tayyor qahramonning tiniq suvratlaridir.

Vatanimiz ravnaqi, xalqimiz farovonligi yo'lida fidoyilik ko'rsatayotgan pok niyatli kishilar orasida biz nomini tilga olgan, o'ziga va so'ziga sodiq shoirning borligi bizni quvontiradi. Ko'plab e'lon qilgan asarlari o'z muxlislari tomonidan iliq kutib olindi, bahstlab risolayu maqolalar yozildi, yozilmoqda.

Biz malakaviy ishni yozish jarayonida Prezidentimiz I.A.Karimovning adabiyotga doir fikrlarini va asarlarini o'rgandik. O'sha fikrlardan kelib chiqqan holda shoir va publitsist Sodiq Sayhunning she'riy va nasriy asarlarini o'rganish, tahlil qilish, badiiy mahoratini kuzatish ishlari ilmiy asosda davom ettirildi. Bitiruv-malakaviy ishni yozish jarayonida quyidagi ishlarni amalga oshirdik:

1. Shoir va publitsist Sodiq Sayhunning hayot va ijod yo'lini hamda hozirgi o'zbek adabiyotida, xususan Namangan adabiy muhitida tutgan o'rni atroflicha keng o'rganildi. Shoir o'zining chuqur bilimi, iste'dodi va ilmiy salohiyati bilan hozirgi adabiyotimiz rivojiga katta hissa qo'shgan talantli ijodkordir.
2. Yozuvchining adabiy merosi, to'plamlari aniqlandi, tahlil qilindi.
3. Sodiq Sayhun badiiy ijodini mavzu jihatdan turlarga ajratib olishga erishildi.
4. San'atkorning badiiy so'z tanlashdagi o'ziga xos yo'li, mavzuni yoritishdagi ifoda usulini ochib berildi, badiiy mahorati o'rganildi.

5. Sodiq Sayhunning lirik va epik asarlarini o'rganish jarayonida o'ziga xos uslub yo'nalishini tadqiq etildi (lirik to'plamlari, "Boburning bolaligi Manguberdi" dostoni misolida).
6. Shoining usullari va mahorati masalalari ma'lum bir yo'nalishda kuzatildi.
7. Shoir va publitsistning obraz yaratish mahorati, tarixiy shaxs va badiiy to'qimalardan foydalanishi kabi jihatlari dalillar asosida o'rganildi, o'ziga xosligiga e'tibor qaratildi.
8. Shuningdek, shoirning adabiyot ixlosmandlariga namuna bo'larli hayot yo'li hamda adabiy faoliyatini keng targ'ib qilishga harakat qilindi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

I.IJTIMOIIY – SIYOSIIY ADABIYOTLAR

1. Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T: Ma'naviyat, 2008.
2. Islom Karimov. Adabiyotga e'tibor- ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. T: Ma'naviyat, 2009.
3. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. -T.: O'zbekiston, 2009, 56 b.
4. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. -T.: O'zbekiston, 2010 56 b.
5. Karimov I.A. O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 19 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda nutqi. "O'zbekiston ovozi" gaz., 2010 yil, 1-sentabr soni.
6. Internet saytlar.

II. ILMIY-BADIIY ADABIYOTLAR:

7. Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. – Т.: 2004, 640 б.
8. Норматов У. Ижодкорнинг дахлсиз дунёси. -Т.: "Mumtoz so'z", 2008, 316 б.
9. Ҳамдамов У. Бадий тафаккур тадрижи. -Т.: 2002
10. "Jahon adabiyoti" журнали. "Сарҳисоб" 1998 йил, 1 – сон, 3-36-бетлар.
11. Халилбеков А. Тиник мавжлар. – "Наманган ҳақиқати" газ. 1998 йил 5.05 .
12. Xalilbekov A. Namangan adabiy muhiti. – Toshkent: Ruhafzo, 1998.
13. Содик Сайхун. Ўн саккиз ёш эдинг. - Наманган, 1993.
14. Содик Сайхун. Бобурнинг болалиги. – Тошкент, "Чўлпон", 1994.
15. Содик Сайхун. Севги изҳори. Шеърлар ва ғазаллар. – Тошкент, 1994.
16. Содик Сайхун. Ўқи, тингла, ўйлаб топ. Топишмоқ шеърлар. – Тошкент, "Чўлпон", 1994.
17. Содик Сайхун. Ёр келар кун. – Тошкент, 1995
18. Содик Сайхун Абдулла полвон. Тарихий қисса. Тошкент, 1997
19. Sodiq Sayhun. Nurpok. "Namangan" nashriyoti, 2010.
- Internet ma'lumotlari
20. www.literature.uz
21. www.ziyo-net.uz

